

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 25-fevral chorshanba №8(9593)

ZAMONAVIY ILM-FANDA OLIMA AYOLLARNING O'RNI:

global taraqqiyot va innovatsiyalar strategiyasi

5-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Pullik maktablar, kurslar, o'quv markazlari, repititorlar ko'payib ketdi. Chinakam tabaqalanish ana o'shanda boshlanadi. Chekka qishloq joylardagi kam ta'minlangan oilalarning bolalari sifatli ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bu jarayon allaqachon boshlangan. Hozir cho'ntagi ko'taradigan ko'p iqtidorli bolalar maktabga bormay, turli o'quv markazlari va repititorlarga ketib qolmoqda, maktablarda davomat doimiy boshog'riqqa aylanmoqda. "Qorako'l maktablari" yana qayta tiklanishi lozim.

Xudoyberdi KOMILOV



Nafaqaga chiqqandan keyin dam olib, yoshlarga joy beringizlar. Gapim malol kelib, xafa bo'lmangizlar. O'zi nafaqaga yetguncha "qachon nafaqaga chiqamiz?" deya qiynalamiz. Nafaqaga chiqqach aksini qilamiz.

Zafar MO'MINOV



Sertifikatning chiqqani oz bo'lsa ham o'quvchilarning qimirlashiga turtki bo'ldi. Negaki, o'quvchilar essega tayyorlanish uchun yozma nutqni to'g'rilash harakatiga tushib qolishgan. Ayniqsa, mumtoz matnni tushunishga bo'lgan urinishlari juda yaxshi.

Matluba NASRIDINOVA



Islahot

Maktab maslahatchisi – yosh iqtidorlarni aniqlash uchun yangi imkoniyat



Mamlakatimizda yoshlar iqtidorini erta aniqlash hamda ularning salohiyatini rivojlantirishda yangi bosqichga qadam tashlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-dekabrdagi "Kelajak" markazlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan "Kelajak" markazlari faoliyatini tartibga solish yo'lga qo'yildi.

Qarorga binoan maktabdan tashqari ta'limni zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan keng qamrovli dastur belgilanib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining buyrug'iga asosan uni hayotga tatbiq etish mexanizmlari ishlab chiqildi. Yangi tizim bir necha ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, butun mamlakat bo'ylab yagona institutsional tuzilma yaratilmoqda. Ikkinchidan, to'garaklar zamonaviy dasturlar asosida qayta tashkil etilmoqda. Uchinchidan, har bir maktabga maxsus mas'ul shaxs – **maktab maslahatchisi** saralab olinadi.

Ushbu tuzilma uch bo'g'indan iborat. Eng yuqori bo'g'inda Respublika "Kelajak" markazi faoliyat ko'rsatadi. U "Barkamol avlod" respublika bolalar maktabi, O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati hamda O'quvchi-yoshlar markazi negizida tashkil etildi.

Mazkur tizim bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Jumladan, 2025-yilda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun maktab maslahatchilari lavozimiga arizalar qabul qilinib, hozir talabgorlar bilan suhbatlar o'tkazish hamda ish boshlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Maktab maslahatchisi bir qator muhim vazifalarni amalga oshiradi. Xususan, u maktabda "Prezident iqtidorli farzandlari" milliy dasturini targ'ib qiladi va amalga oshiradi, "Kelajak" markazlarining to'garaklarini yo'lga qo'yadi, o'quvchilarni tarixiy, madaniy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirib boradi. Yoshlarda yetakchilik va tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirish uchun turli klublar tashkil etib, debatlar o'tkazadi hamda "O'quvchilar kengashi" faoliyatini boshqaradi. Shuningdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va raqamli ma'lumotlar bazasini yuritish kabi vazifalarni ham amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, maktab maslahatchisining maoshi direktor o'rinbosari ish haqiga tenglashtirilgan. Menejerlik sertifikatiga ega bo'lganlar uchun esa qo'shimcha 30 foiz ustama to'lanadi. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti 2026-yil 1-sentabrdan boshlab menejerlik kurslari va sertifikatlashtirish dasturini yo'lga qo'yadi.

Maktab maslahatchisiga qanday talablar qo'yiladi?

Ushbu lavozimga nomzodlarni tanlash jarayoni to'liq shaffof va adolatli amalga oshirildi. Ariza topshirish tanlov.uzedu.uz elektron tizimi orqali olib borildi. Jami 15 225 ta ariza kelib tushdi. Bu esa yoshlarda ushbu lavozimga qiziqish yuqori ekanligidan dalolatdir.

Maktab maslahatchisi lavozimiga nomzodlar "Microsoft Office" dasturlari, zamonaviy axborot texnologiyalari va internetda mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ular maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qarorlar va buyruqlardan xabardor bo'lishi, shuningdek, xorijiy tillardan birini boshlang'ich darajada egallagan bo'lishi lozim. Davlat tilini bilish majburiy bo'lib, boshqa xorijiy tillarni bilish esa ustuvorlik sifatida e'tiborga olinadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli buyrug'iga asosan joriy yilning 16-17-yanvar kunlari "Kelajak" markazlarining umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi maktab maslahatchisi lavozimi uchun test sinovlari o'tkazildi. Dastlabki saralash natijasida 10 497 nafar nomzod test bosqichiga tavsiya etildi. Test 30 ta savoldan iborat bo'lib, maksimal 78 ball olish mumkin. Testda nomzodlarning tashkiliy qobiliyati, pedagogik mahorati, kommunikativ ko'nikmalari, psixologik tayyorgarligi va yetakchilik salohiyati baholandi. Test natijalariga ko'ra, har bir ish o'rni bo'yicha eng yuqori ball to'plagan jami 6 069

nafar nomzod suhbat bosqichiga o'tkazildi, bu esa har bir hududda eng salohiyatli nomzodlarni aniqlash imkonini berdi.

Suhbat jarayonida nomzodlarning yoshlarni qo'llab-quvvatlash va kasb-hunarga yo'naltirish qobiliyati, akademik rejalashtirish va treninglar tashkil etish salohiyati, kreativ loyihalar hamda klublar yaratish qobiliyati, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish salohiyati, shuningdek, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalari baholandi. Munosib deb topilgan talabgorlar suhbat natijalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar "Kelajak" markazlari tanlov komissiyasining tavsiyanomasi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori tomonidan ishga qabul qilinadi.

Ushbu lavozim yosh mutaxassislar uchun barqaror ish haqi, menejerlik sertifikatiga ega bo'lganlar uchun ustama to'lov hamda malaka oshirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Muhimi, mazkur lavozim uchun mehnat staji talab etilmaydi, bu esa oliy ta'limni endigina tugatgan yoshlarni ta'lim tizimiga jalb etish hamda ularning zamonaviy bilimi va innovatsion yondashuvlari orqali tizimni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qayd etish lozim, maktab maslahatchisi lavozimining joriy etilishi mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Bu tizim bir necha muhim afzalliklarga ega:

- Institutsional jihatdan yagona, markazlashtirilgan boshqaruv tizimi yaratildi hamda respublika darajasidan tuman darajasigacha uzluksiz vertikal boshqaruv mexanizmi tashkil etildi. Har bir boshqaruv darajasining aniq vazifalari va mas'uliyat doirasi belgilandi. Faoliyatni raqamlashtirish orqali boshqaruv jarayonlarining to'liq shaffoffligi ta'minlandi.

- Pedagogik jihatdan zamonaviy dasturlar hamda yagona standartlar joriy etilib, to'garaklar ixtisoslashgan yo'nalishlar asosida tashkil etilmoqda. Inklyuziv ta'lim imkoniyatlari kengaytirildi, xalqaro tajriba esa mahalliy sharoitga moslashtirilmoqda.

- O'quvchilarning iqtidorini aniqlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizm shakllantirilmoqda. Ular yetakchilik, jamoada ishlash hamda kasb-hunarni ongli tanlash ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. "Ijtimoiy portfolio" orqali esa o'quvchilarning barcha yutuqlari tizimli ravishda hujjatlashtiriladi va belgilangan tartibda shahodatnomada qayd etiladi.

Yangi tizim shuni ko'rsatadiki, davlatimiz yoshlarga doir siyosatni ustuvor yo'nalish sifatida belgilamoqda. Yoshlarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish uchun yangi-yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu esa kelajakda mamlakatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Nodirbek MURODOV,
Respublika "Kelajak" markazining
Maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish
bo'limi bosh mutaxassisi

Islahot

"Kelajak soati" – tafakkurni charxlaydigan milliy tashabbus



Ta'lim tizimida faqat darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va ijodiy yondashuvni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Ana shunday zamonaviy yondashuvning mahsuli sifatida mamlakatimizda har dushanba kuni barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari hamda oliy ta'lim tizimida "Kelajak soatlari" tashkil etilmoqda.

Mazkur soatlar o'quv jarayonining yangi shakli bo'lib, nafaqat bilim berish, balki yoshlarning kelajak kasbi, hayotiy yo'nalishi, shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. "Kelajak soati" – dars emas, balki hayot saboqlarini o'rganish maydoni. Unda ta'lim oluvchilar amaliy loyihalar, suhbatlar, videomateriallar, ijtimoiy tajribalar orqali o'z fikrini erkin ifoda etadi.

Shuningdek, bu tashabbus milliy ta'lim tizimini insonparvarlik tamoyillari asosida yangilash, yoshlarni XXI asr ko'nikmalariga tayyorlash maqsadida yo'lga qo'yilgan.

"Kelajak soatlari" orqali o'quvchi-yoshlar faqat tarbiyachi, o'qituvchilardan emas, balki bir-biridan, jamiyatdagi turli kasb egalari va yetakchi shaxslardan, buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlaridan ham saboq olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda "Kelajak soatlari" yosh avlodni vatanparvar, ijtimoiy faol va bilimga chanqoq shaxs sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Har bir mavzu – bu ta'lim oluvchining hayotiy maqsadini aniqlashga turtki bo'luvchi ruhiy signal, ilhom manbayi. Ayniqsa, dars jarayonida o'quvchilar orasida o'z fikrini

dadil ayta oladigan, jamoaviy ishlashni biladigan, o'z kuchiga ishonadigan yoshlar safi kengaymoqda. "Kelajak soati" orqali o'quvchi nafaqat kelajak kasbini, balki o'z hayotiy yo'lini angelaydi, mehnat, halollik, intilishning qadriga yetadi. "Kelajak soatlari"ning yana bir ahamiyatli jihati ta'lim tashkilotlarini jamiyat bilan yanada yaqinlashtirishidir. Unda turli soha vakillari o'z tajribalarini o'rtoqlashadi. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, mehnat va ijodga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "Kelajak soatlari" yo'lga qo'yilganidan beri o'quvchi-yoshlar orasida ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish darajasi sezilarli oshgan. Qator ta'lim muassasalarida o'quvchilar ekologik loyihalar, innovatsion tanlovlar, kitobxonlik marafonlari va madaniy-ma'naviy tadbirlarni o'z tashabbuslari bilan yo'lga qo'ymoqda. Pedagoglar ta'kidlashicha, bu soatlar yoshlar-

ning nutq madaniyati, mustaqil fikrlash qobiliyati va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirgan. Psixologlar esa "Kelajak soatlari"da faol qatnashgan o'quvchi-yoshlar ijtimoiy jihatdan ochiq, tashabbuskor va yetakchilik fazilatlariga ega bo'layotganini qayd etmoqda. Bu esa ta'lim tizimida shakllanayotgan yangi bosqich – tafakkur va amaliyot uyg'unligining yaqqol ifodasidir.

Shu bois bu tashabbusni har bir ta'lim tashkilotda izchil davom ettirish, uni yanada boyitish va mazmunan takomilllashtirish barchamizning ma'naviy burchimizdir. Chunki bugun o'tkazilayotgan "Kelajak soatlari" ertangi yurt taraqqiyoti, millat istiqboliga qo'yilgan eng ishonchli poydevordir.

Muhayyo BEKMURODOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti
magistranti,
Gurlan tumanidagi
5-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha o'rinbosari

Islohot va samara

TAFAKKUR ISLOHOTI:

Kitobxonlik milliy yuksalishning strategik omili sifatida



Insoniyat tamadduni tarixiga nazar tashlasak, qaysiki xalq yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa, bu zafarlar zamirida avvalo ilm-u ma'rifat, kitobga bo'lgan ehtirom yotganiga guvoh bo'lamiz. Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyasidan tortib, o'rta asrlardagi islom olami va Yevropa Uyg'onish davrigacha bo'lgan paytlarda kitobxonlik jamiyatning intellektual qudratini belgilab bergan. Masalan, abbosiylar xalifaligi davrida Bag'dodning "Bayt ul-hikma" kutubxonasi minglab olimlarning ilm markaziga aylangan hamda bu orqali fan va madaniyat rivoji ta'minlangan. Bugungi kunda ham rivojlangan davlatlar, masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya yoki Finlandiya aholisining yuqori kitobxonlik darajasi bilan ajralib turadi. Statistikaga nazar tashlaydigan bo'lsak, finlandiyaliklar yiliga o'rtacha 15–20 ta kitob o'qiydi, bu esa ularning innovatsion iqtisodiyoti va ijtimoiy farovonligining asosiy omillaridan biridir.

Kitob – insonni nafaqat ma'lumot bilan qurollantiradigan, balki uning ruhiyatini poklaydigan, dunyoqarashini kengaytiradigan va mustaqil fikrlashga o'rgatadigan bebaho xazinadir. Psixologlarning fikricha, muntazam kitob o'qish miya faoliyatini faollashtiradi, empatiya darajasini oshiradi va stressni kamaytiradi. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan, axborot xurujlari tobora avj olayotgan globallashuv davrida yoshlar ongini yot g'oyalardan himoya qilish, ularda vatanparvarlik va yuqori ma'naviyatni shakllantirishning eng maqbul yo'li ham aynan mutolaa madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Zotan, raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar va qisqa videolar hukmronlik qilayotgan bir paytda kitobxonlik yosh avlodni chuqur fikrlash, tanqidiy tahlil va ijodiy yondashuvga undaydi. Zero, kitob o'qigan millat mag'lub bo'lmaydi, kitob o'qigan avlod esa kelajakni qurishga qodir bo'ladi. Bu haqiqatni tarixiy misollar tasdiqlaydi: Ikkinchi jahon urushidan keyin vayron bo'lgan Yaponiya o'zining "Meiji inqilobi" ruhida ta'lim islohotlari orqali kitobxonlikni milliy siyosatga aylantirdi va natijada jahon iqtisodiy gigantiga aylandi. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi ma'rifiy sa'y-harakatlarini ham ana shunday kontekstda ko'rish mumkin. Yangi O'zbekistonning bugungi kundagi ma'rifatparvarlik harakati bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvarda imzolangan "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholining kitob o'qishga qiziqishini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganligi ham ahamiyatli. Bu qarorni nafaqat kitobxonlikni rag'batlantirish haqidagi yuridik hujjat, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli strategiya sifatida ham qabul qilish mumkin. Qaror O'zbekistonning Uchinchi Renessans sari qadamlarini mustahkamlashning yorqin namunasidir, chunki u milliy yuksalishning asosiy omili sifatida tafakkurni isloh qilishni ko'zda tutadi. Uning tub mohiyatida aniq bir maqsad – mamlakatning intellektual xaritasini o'zgartirish g'oyasi yotibdi.

Mazkur qarorda 2026–2030-yillar davomida aholining kitobxonlik darajasini, ya'ni bir kishi yiliga o'qiydigan kitoblar sonini o'rtacha 10 taga yetkazish asosiy

maqsad sifatida belgilandi. Bu ko'rsatkich rasmiy statistika bilangina cheklanmay, aholining o'qishga bo'lgan munosabati va umumiy madaniy saviyasini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Chunki muntazam mutolaa shaxsning bilim doirasini kengaytirish bilan birga axborotni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun qarorda aniq va tizimli choralar nazarda tutilgan. Xususan, kitob nashr etish hajmini oshirish orqali bozorni yetarli va sifatli adabiyot bilan ta'minlash, kutubxonalarni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish hamda ta'lim tizimida mutolaani doimiy va nazorat qilinadigan jarayonga aylantirish ko'zda tutilmoqda. Bu yondashuv kitobxonlikni alohida tashabbus darajasidan chiqarib, jamiyat hayotining barqaror qismiga aylantirishga xizmat qiladi.

Bu maqsadga erishish uchun Yoshlar ishlari agentligi huzurida yuridik shaxs maqomisiz Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishi belgilandi. Jamg'armaning vasiylik kengashi tarkibiga taniqli olimlar, tarjimonlar va soha mutaxassislarning kiritilgani tizimning shaffof va professional ishlashidan dalolat beradi. Jamg'arma mablag'lari endilikda nafaqat tadbirlar o'tkazishga, balki ijod ahlining ijtimoiy himoyasiga ham yo'naltiriladi. Xususan, tanlov asosida aniqlangan iste'dodli mualliflarga ijod qilishlari uchun bir yilgacha har oyda BHMning 50 baravari (taxminan 18–20 mln so'm) miqdorida haq to'lanishi belgilangani yozuvchi va shoirlar uchun misli ko'rilmagan rag'bat bo'ldi. Bu choralar orqali milliy adabiyotning sifati oshadi va yosh ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Masalan, shunga o'xshash dasturlar Rossiya yoki Fransiya kabi davlatlarda adabiyotni qo'llab-quvvatlashda muvaffaqiyatli qo'llanilgan va tizimli davlat qo'llovi Nobel mukofoti sohiblari darajasidagi adabiyot shakllanishiga zamin yaratgan.

Yana bir inqilobiy yangilik – xorijiy adabiyotlarni o'zbek tiliga va milliy asarlarimizni chet tillarga tarjima qilish tizimi bilan bog'liq. Qarorga muvofiq, eng sara asarlarni tarjima qilishda nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlarining 50 foizi, mualliflik huquqi(copyright) uchun sarflanadigan mablag'larning esa 80 foizi jamg'arma tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun davlat budjetidan har yili 20

milliard so'm mablag' ajratilishi nashriyot sohasidagi moliyaviy to'siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu sa'y-harakatlar o'zbek kitobxonining jahon ilm-fani va adabiyoti yangiliklaridan o'z ona tilida muntazam va tizimli ravishda bahramand bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, Janubiy Koreyada davlat tomonidan yo'lga qo'yilgan "Literature Translation Institute of Korea(LTI Korea)" dasturi doirasida milliy adabiyot namunalarning tarjima va nashr xarajatlari qoplanadi. Tarjima va milliy adabiyotni parallel qo'llab-quvvatlash siyosati ichki va tashqi bozorni bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qilgan. Davlat tomonidan tarjima xarajatlari qoplanishi natijasida koreys adabiyoti xorijiy bozorlarga faol kirib borgan, ichki bozorda esa kitob savdosi barqaror o'sish bosqichiga chiqqan. Bu tajriba tarjimoni faqat madaniy emas, balki iqtisodiy samaradorlikka ega instrument sifatida ko'rish mumkinligini tasdiqlaydi. Xuddi shuningdek, Fransiya "Centre national du livre" tomonidan tarjima loyihalariga beriladigan grantlar fransuz kitoblarining global adabiy makonga chiqishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Fransiya nashr etilayotgan kitoblarning qariyb 18–20 foizi tarjima asarlar hissasiga to'g'ri keladi. Fransiya nashriyot bozori bo'yicha rasmiy hisobotlarda tarjima loyihalariga subsidiyalari ajratilgan davrlarda kitob savdosi hajmi 20 foizga yaqin o'sgani qayd etilgan. Bu holat, ayniqsa, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyot segmentida yaqqol namoyon bo'lgan.

O'zbekistonda joriy etilayotgan ushbu mexanizm ham xuddi shunday amaliy va hisob-kitobga tayangan maqsadni ko'zlaydi: bir tomondan, o'zbek o'quvchisini jahon ilm-fani va adabiyotining muhim namunalari bilan ona tilida tanishtirish, ikkinchi tomondan esa milliy adabiyotimizni chet tillar orqali xalqaro kitob bozoriga olib chiqish. Bu yondashuv o'zbek adabiyotini ichki iste'mol doirasida qolib ketishdan chiqarib, uni global madaniy almashinuvning faol ishtirokchisiga aylantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu jarayon nafaqat madaniy almashinuvni kuchaytiradi, balki turizm va xalqaro hamkorlikni ham rivojlantiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tarjima adabiyoti rivojlangan mamlakatlarda kitob savdosi 20–30 foiz oshgan.

Qarorda, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish masalasiga ham alohida urg'u berilgan. 2026-yil 1-fevraldan boshlab "Kitob – ma'rifat manbayi" dasturi ishga tushirilishi belgilangan bo'lib, ushbu dastur doirasida jamoat transportlari – avtobus, metro, poyezd va samolyotlarda "Mutolaa" platformasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi, buning uchun maxsus QR-kodlar o'rnatiladi. "Bir kunda bir sahifa" onlayn tashabbusi esa aholida kundalik mutolaa odatini shakllantirishga xizmat qiladi. E'tiborli jihati, endilikda hududlar kesimida kitob sotuvi va kutubxonaga tashriflar asosida "Kitobxonlik indeksi" yuritiladi, bu esa hududlar o'rtasida ma'rifiy musobaqa muhitini yaratadi. Masalan, bu indeks orqali Toshkent, Samarqand yoki Farg'ona viloyatlarining kitobxonlik darajasi solishtiriladi va eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan hududlar rag'batlantiriladi.

Kutubxonalar – kitobxonlikning mar-kazi va qaror doirasida ularni modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Har bir mahallada kutubxona tashkil etish orqali aholining kitobga yaqinligi ta'minlanadi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar ham mazkur qarorning uzviy qismidir. Umumta'lim maktablarida "Jadidlar izidan" kitobxonlik klublari tashkil etilib, unda o'quvchilarga yiliga kamida 20 ta kitob o'qitish va ularning tahlili bo'yicha debatlar o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. Eng faol klub a'zolari davlat tomonidan muntazam rag'batlantirib boriladi. Bu choralar yosh avlodga kitobxonlikni odatga aylantiradi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, debatlar orqali o'quvchilar kitob mazmunini muhokama qilishadi, bu esa ularning nutq madaniyati va ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradi.

Shuningdek, davlat xizmatchilari ham bu jarayondan chetda qolmaydi. Barcha vazirlik va idoralarda "Kitob burchaklari" tashkil etilib, har oyda "Kitob o'qish soati" o'tkazilishi, eng ko'p kitob o'qigan xodimga esa bir oylik ish haqi miqdorida mukofot berilishi davlat boshqaruv tizimida ham ma'naviy muhitni sog'lomlashtiradi. Bu tashabbus orqali byurokratiya kamayadi va xodimlarning malakasi oshadi, chunki kitob o'qish rahbarlik qobiliyati va qaror qabul qilish samaradorligini yaxshilaydi.

Mahallabay ish tizimi kitobxonlik targ'ibotiga ham kirib keldi. 2026-yil davomida namuna sifatida 330 ta mahalla kutubxonasi tashkil etiladi, "Oilaviy kitobxonlik" dasturi doirasida esa mahallalardagi kitobxon oilalar rag'batlantiriladi. Bolalar adabiyotini qo'llab-quvvatlash uchun g'olib loyiha mualliflariga BHMning 100 baravari miqdorida mukofot berilishi va asarlarining 5000 nusxada chop etilishi kichikintoylarimiz uchun sifatli adabiyotlar bazasini yaratadi. Bu choralar oilaviy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Masalan, "Oilaviy kitobxonlik" dasturi orqali oilalar birgalikda kitob o'qish tadbirlarida ishtirok etadi, bu esa oilaviy rishtalarni mustahkamlab, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar adabiyoti bo'yicha mukofotlar esa yosh yozuvchilarni rag'batlantiradi va milliy ertak, she'r va hikoyalarning yangi to'lqinini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlikni rivojlantirish orqali biz nafaqat bilimli jamiyatni, balki mustaqil fikrli, erkin va ma'rifatli xalqni tarbiyalaymiz. "Kitob – aql drayveri" va "Kitob o'qigan inson – fikrli inson" kabi shiorlarning hayotimizga chuqur kirib borishi O'zbekistonning Uchinchi Renessans sari tashlagan eng dadil qadamlaridan biri bo'lib, tarixda qolishi shubhasiz. Bu islohotlarning muvaffaqiyati jamiyat har bir a'zosining faol ishtirokiga bog'liq. Har bir o'zbekistonlik kitobxonlikni shaxsiy mas'uliyat deb bilishi kerak, chunki milliy yuksalish shaxsiy taraqqiyotdan boshlanadi. Kelajakda O'zbekistonni jahonning eng ma'rifatli davlatlari qatoriga qo'shish uchun bugun kitobni qo'lga olish vaqti keldi. Bu yo'lda davlatning qo'llab-quvvatlashi va jamiyatning birligi muvaffaqiyat kalitidir.

Abbosbek MO'MINOV,
Abdulla Avloniy nomidagi
Pedagogik mahorat milliy instituti
yetakchi mutaxassisi,
Madinabonu MO'MINOVA,
Olmazor tumani Axborot-kutubxona
markazi mutaxassisi

Teran tomirlar

Alisher Navoiy va axloqiy tarbiya



Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki davlat arbobi, mutafakkir va ma'naviyat targ'ibotchisi sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Asarlarida muhabbat, adolat, saxovat, halollik va kamtarlik kabi axloqiy fazilatlar markaziy o'rin tutadi. Navoiy insonni tarbiyalash orqali jamiyatni isloh qilish mumkin, deb hisoblagan.

Biz quyida buyuk mutafakking axloqiy qarashlarini adolat hamda to'g'rilik, rostlik masalalari bilan bog'liqlikda ko'rib chiqamiz.

Navoiy adolatni davlat va jamiyatning tayanchi sifatida talqin qiladi. Mutafakking qarashlariga ko'ra, adolatsiz jamiyat barqaror bo'la olmaydi. Shu sabab u podshoh va amaldorlarni adolatli bo'lishga, har bir ish va holatda adolat tarozusi bilan xulosa chiqarish, hukm qilishga chaqirgan. Masalan, "Mahbub ul-qulub" asarida hukmdorning eng katta fazilati adolat ekanini ta'kidlaydi: "Adl ila mulk obod, zulm ila vayron". Buyuk mutafakking quyidagi misralarida ham davlatning sobit – mustahkam va barqarorligi aynan adolat tufayli ekanligi falsafiy talqin etilgan:

*Adl aylaki, ul xalq hayoti bo'lmish,
Xush ul kishikim, adl sifoti bo'lmish,
Ham mulk bila adl jihoti bo'lmish,
Ham adl bila mulk saboti bo'lmish.*

Navoiyning falsafiy-ijtimoiy tafakkuri va davlatchilikka doir qarashlarida xalq dodini tinglash va xalqning muammolarini adolat bilan hal qilish o'zining alohida talqinlarini topgan:

*Mulk-u kishvar eliga dod ayla,
Adl ila ikkisin obod ayla.
Tengri yodi chu sanga bo'ldi hisor,
Dod ila adl ulus birla shior.*

"Xalqni tinglash va uning muammolarini adolat bilan hal qilish" – buyuk mutafakkir ijtimoiy qarashlarining ikki ustuni aynan shulardir.

Navoiy adolat mezonini buzilgan joyda dunyoni qorong'ulik qoplashi haqida ogohlantiradi:

*Quyoshdek shah adolat pesha qilsa,
Jahon mulkini bir damda yorutg'ay.
Agar zulm etsa aqshom zulmatidek,
Hamul dam tiyralik olamni tutg'ay.*

Adolat qonunlari buzilgan joyda dunyoni zulmat qoplashi muqarrarli-

gi Alisher Navoiy falsafiy qarashlarida davlat a'yonlari uchun bir mangu ogohlantirishdek yangraydi. Tabiiyki, bu qarash bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan: qonun ustuvorligi va adolat jamiyat taraqqiyotining asosidir, binobarin, ushbu mezonlar buzilgan joyda vaqt o'tishi bilan tanazzul ro'y berishi muqarrar.

To'g'rilik, rostlik masalalari ham buyuk mutafakkir falsafiy-axloqiy qarashlarida muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" idagi o'ninchi maqolat "Rostliq ta'rifida" bo'lib, unda ulug' shoir rostlik va egrilikni, chin va yolg'onni o'zaro qiyosiy tarzda tasvirlaydi. Maqolat shunday boshlanadi:

*Har kishikim, tuzluk erur peshasi,
Kajrav esa charx ne andeshasi.*

Darhaqiqat, "tuzluk" ya'ni rostlik va to'g'rilikni o'ziga kasb aylagan kishining ko'nglida xijolat, qo'rquv, pushaymonlik, shubha-gumonlarga o'rin qolmaydi. Zero, rostlik kishini har qanday balo-qazolardan, charxi kajraftorning o'yinlaridan, falakning teskari ishlardan asraydi. Navoiy tazod vositasida to'g'rilik(tuzluk) va egrilik(kajravlik) ni o'zaro muqoyasa qiladi, to'g'rilikni o'qqa o'xshatadi:

*O'qki, tuz o'ldi tayaroni aning
Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning.*

Ya'ni, o'qning uchishi – parvozi to'g'ri bo'lgach, yerning egriligi-yu past-balandligi unga qanday ziyon yetkazishi mumkin.

Xullas, Navoiy nazdida komil axloqqa ega inson – misli bir dengiz, badaxloq kishilar esa kirlangan irmoqlar kabidir. Irmoqlar dengizga quyilib tozalangani kabi insonlar ham axloqi mukammal insonlar orqali o'z illatlari-dan tozalanadilar. Navoiyning insonga muhabbati shu qadar balandki, u davron ahlining axloqidagi muammolar sabablarini ham o'zidan qidiradi: demak u insonlarning yomon illatlardan tozalanishlariga bois bo'la olmayaptiki, ular orasida axloqdan toyilish ko'paymoqda. Shuning uchun ham Navoiy insonlar orasida, jamiyatda axloq bilan bog'liq chetga chiqish holatlariga duch kelganda, avvalambor, inson o'zini poklashi, o'z ko'nglidan yomon illatlarni quvishi lozimligiga, ya'ni insonning jamiyat oldidagi shaxsiy javobgarligiga chaqiradi.

Nodir RAMAZONOV,
TDYU dotsenti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori(PhD)

2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili



Mahalla – muayyan milliy, axloqiy va maishiy tartib-qoidalarga rioya qilish, ma'raka va to'y-hashamlarni birga o'tkazish, ahillikni ta'minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jamoadir. Sharqda, xususan, O'zbekistonda azal-azaldan jamoa bo'lib yashash an'analari qadrlab kelingan. Mahalla jamoaviylikning eng yorqin ko'rinishi bo'lib, manbalarning guvohlik berishicha, ildizlari juda qadim tarixga ega.

Yangi O'zbekistonda yangi mahalla qiyofasi

Buyuk Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari"da "...har mulk va mamlakatning beklari, ulug'lari, boshliq, oqsoqollarini hurmatladim, ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandim", deb ularga o'z hurmat-ehtiromini bildirgan. Sohibqiron tomonidan berilgan bunday e'tibor va e'tirof natijasida Zahiriddin Muhammad Bobur ham hudud oqsoqollariga alohida hurmat ko'rsatgan.

Aytish lozimki, O'zbekistonda "Uchinchi Renessans davri"ning boshlanishi mahalla institutining ijtimoiy-siyosiy jihatdan sayqal topa boshlagan davri bilan baholanadi. Ayniqsa, dunyo pandemiya tufayli "begonalashuv", ya'ni insonlarning bir-biridan uzoqlashuvi, egosentrizm xavfi ostida turgan bir vaqtda, mahallada istiqomat qiluvchi insonlarda hamfikrlilik, birdamlik, bag'rikenglik kabi jamiyatning eng oliy qadriyatlari saqlanib qoldi. Mahalla boshqaruv tizimida yangi lavozimlar, jumladan, fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari, oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar, obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimlari joriy etildi. Bu o'ziga xos yo'l bo'lib, mahalla tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolar yig'inlariga yaqindan ko'maklashish, unga davlat yor-

damini ko'rsatish bo'yicha sohada yangi davrni boshlab berdi. Bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekistonda mahallaning yangicha qiyofasi yaratildi. "Mahalla raisi – islohotchi" tamoyili asosida aholining ijtimoiy masalalarini hal qilish yuzasidan yangi tizimni samarali joriy etish bosh mezon sifatida belgilab olindi. Endilikda mahalla raislari hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi muammolarini bartaraf etish, yangi isho'rinlari yaratish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasida davlat organlari va mutasaddi tashkilotlar oldiga aniq vazifalarni qo'yish, ularning ijrosini qat'iy talab qilish vakolatiga ega bo'ldi.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonning yangi qiyofadagi mahallasi muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanib bormoqda. Ya'ni mahalla xalq bilan to'g'ridan to'g'ri ish olib boruvchi, oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotga aylandi. Bundan tashqari, bugungi kun mahallalari ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda muhim tashkilot sifatida faoliyat yuritmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yilda davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, ta'lim, iqtisodiyot, sport, ilm-fan,

madaniyat va ekologiya kabi ustuvor sohalarni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'kidlab o'tdi. Jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlar alohida tilga olindi va ularning har biri bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi:

1. Mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish.
2. Iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish.
3. Ichki bozorda talabni rag'batlantirish.
4. Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish.
5. Ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish.
6. Zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarni davom ettirish.

2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb nomlanishi ham mahalla instituti tizimi zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. Ushbu dasturda yurtimizdagi mahallalarni mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish kabi dolzarb masalalar o'z ifodasini topishini Yurtboshimiz alohida ta'kidladi.

Shuningdek, "yashil hudud", "yashil bog'" yaratish bo'yicha alohida mablag' ajratilishi va bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kiramiz, degan fikrlar Murojaatnomadan joy oldi. Bundan tashqari, 2026-yilda "Mahallada sanoat va xizmat" loyihasi orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahallalardagi aholini, xususan, xotin-qizlarni sportga keng jalb etish, mahalla yoshlarining kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, oilalarni kambag'allikdan chiqarish kabi dolzarb ustuvor vazifalarning belgilanishi Yangi O'zbekistonning yangi mahallasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Durdona RASULMUHAMEDOVA,
TDYU dotsenti

Gender tenglik

Zamonaviy ilm-fanda olimlar ayollarning o'rnini global taraqqiyot va innovatsiyalar strategiyasi

XXI asrda ilm-fan va texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Ushbu jarayonda inson kapitalidan to'liq va samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollar salohiyatini ilm-fan sohasiga jalb etish global barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" rezolyutsiyasi doirasida 11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni deb e'lon qilinishi ayollarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim xalqaro tashabbus hisoblanadi. Ushbu sana nafaqat ramziy ahamiyatga ega, balki olimlar ayollarning ilm-fan rivojida o'rnini e'tirof etish, gender tenglikni ta'minlash va ilmiy salohiyatdan to'liq foydalanishga chaqiradi.

Tarixan ilm-fan erkaklar hukmron bo'lgan soha sifatida qaralgan bo'lsa-da, ko'plab ayol tadqiqotchilar mavjud ijtimoiy va institutsional to'siqlarga qaramay, fundamental ilmiy kashfiyotlar yaratgan. Masalan, Mariya Kyuri radioaktivlik hodisasini ilmiy jihatdan asoslab, fizika va kimyo fanlari rivojida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Uning ilmiy faoliyati "ayollar ilm-fanga qodir emas" degan stereotiplarga kuchli zarba bo'ldi. Dasturlash va hisoblash texnikasi tarixida Ada Lavleys tomonidan ilgari surilgan algoritmik yondashuvlar bugungi sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biologiya va genetika sohasida esa Rosalind Franklin olib borgan tadqiqotlar DNK tuzilishini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mazkur tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, olimlar ayollar ilm-fan taraqqiyotida faqat yordamchi emas, balki ilmiy paradigmalarni o'zgartiruvchi kuch bo'lib kelgan.

XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlari sanoat va ilm-fan sohasining rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylandi. Sanoat 4.0 konsepsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarining intellektuallashuvi, avtomatlashtirish va raqamlashtirishni o'z ichiga olgan holda yangi bilim va malakalarni talab etmoqda. Ushbu sharoitda inson kapitali, xususan, olimlar ayollarning ilmiy-innovatsion faoliyatdagi ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Global miqyosda ayollarning ilm-fan va texnologiya sohasidagi ulushi asta-sekin oshib borayotgan bo'lsa-da, Sanoat 4.0 bilan bog'liq yuqori texnologik yo'nalishlarda ularning ishtiroki hali ham yetarli darajada emas. Ilm-fan, texnika va innovatsiyalar(FTI) zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy qo'zg'atuvchi kuchi hisoblanadi. Ushbu sohalarga to'liq va teng huquqli kirish nafaqat inson huquqlari masalasi, balki iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish va global muammolarni hal qilish uchun zaruriy shartdir. Biroq tarixan ayollar va qizlar FTI sohasida jinsiy tafovutlar, stereotiplar va institutsional to'siqlarga uchrab kelgan. Bugungi kunda dunyo bo'yicha tadqiqotchilarning faqat 33 foizi ayollardir. Bu esa jamiyatda olimlar ayollarga nisbatan mavjud stereotiplarni sindirish va ularga ilm-fan eshiklarini kengroq ochish maqsadini ko'zlaydi. Ilmiy hamjamiyatda ayollar ulushining ortishi kashfiyotlar ko'lamini kengaytirib, yechimlarning ko'p qirrali bo'lishini ta'minlaydi. Olimlar ayol-qizlar Sanoat 4.0 jarayonlarida quyidagi yo'nalishlarda muhim rol o'ynamoqda:

- sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili sohasida algoritmik va modellar ishlab chiqish;
- muhandislik va texnologik innovatsiyalarda ilmiy izlanishlar olib borish;
- raqamli ta'lim va ilmiy kadrlar tayyorlashda pedagogik va ilmiy rahbarlik faoliyati;
- innovatsion loyihalar va startaplarda yetakchi ilmiy mutaxassis sifatida ishtirok etish.

Zamonaviy ilm-fanda ayollar shunchaki "ijrochi" emas, balki "innovator" va "strateg" sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt algoritmilarini yaratishda ayol mutaxassislarning ishtiroki "gender bias"(gender xatoligi) muammosini hal qiladi. Zamonaviy texnologiyalar

avrida ayollarning intellektual salohiyati sun'iy intellekt, biotexnologiya va qayta tiklanuvchi energiya kabi sohalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. STEM yo'nalishlari: matematika, muhandislik va texnologiya sohasida ayollarning ishtiroki algoritmik xolisligini ta'minlashda muhim. Kimyo va fizika sohasida olimlar ayollarning kashfiyotlari(masalan, gen tahrirlash – CRISPR texnologiyasi) insoniyat hayotini tubdan o'zgartirmoqda. Ilm-fan chegara bilmaydi. Olimlar ayollarning xalqaro ilmiy loyihalardagi ishtiroki ijobiy natija bermoqda. Tajriba almashinuvi – "Horizon Europe" yoki "UNESCO-L'Oréal" kabi grant dasturlari orqali olimlar ayollar global tarmoqlarga integratsiyalashmoqda. Iqlimo'zgarishivapandemiyakabitahdidlarga qarshi kurashda xotin-qizlarning xalqaro ilmiy konsorsiumlardagi roli ortib bermoqda. Rivojlangan davlatlardagi olimlar ayollarning rivojlanayotgan mamlakatlardagi yosh qizlarga mentorlik(ustozlik) qilishi ilmiy transferni tezlashtirmoqda. Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi – iqtisodiy o'sishning asosiy drayveridir. Olimlar ayollar nafaqat nazariy tadqiqotlar, balki ularni amaliyotga joriy etishda ham yetakchidir. Qishloq xo'jaligida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda seleksiya va agrotexnika sohasidagi olimlar ayollarning innovatsiyalari hosildorlikni 20–30 foiz oshirish imkonini bermoqda. Yashil iqtisodiyotda chiqindisiz texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda ayol muhandislarning loyihalari yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Dunyo miqyosidagi kashfiyotlarning, xususan, DNK tahrirlash(CRISPR) texnologiyasining asoschilari ayollar(Jennifer Doudna va Emmanuelle Charpentier) ekanligi sohaning ayollar intellektiga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi. NASA va ESA kabi agentliklarda muhandis ayollar ulushi so'nggi o'nyil-likda 15 foizdan 28 foizgacha ko'tarildi. Xotin-qizlarning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi ishtiroki "Yumshoq kuch"(Soft Power) diplomatiyasining muhim qismiga aylandi. Ayollar ko'proq kollektivizm va kooperatsiyaga moyilligi sababli, ular rahbarlik qilgan xalqaro loyihalarda muvaffaqiyat koeffitsiyenti yuqoriroq ekanligi kuzatilgan. "Erasmus+", "Fulbright" va "DAAD" kabi dasturlarda ayol tadqiqotchilarning ulushi ortib bermoqda, bu esa madaniyatlararo ilmiy muloqotni mustahkamlaydi. Ekologiya va sog'liqni saqlash bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqishda olimlar ayollarning ijtimoiy empatiyasi inson omilini birinchi o'ringa olib chiqmoqda. Ilm-fanning tijoratlashtirilishi(Technology Transfer) jarayonida ayollar muhim bo'g'indir. Yangi avlod antibiotiklari va vaksinalarining 40 foizdan ortig'i ayollar boshchiligidagi laboratoriyalarda yaratilmoqda. Yashil energetikada quyosh panellari samaradorligini oshirish va vodorod energetikasi bo'yicha patentlarning sezilarli qismi olimlar ayollarga tegishlidir. Tadqiqotlarga ko'ra, agar ayollarning ilm-fan va texnologiyadagi ishtiroki erkaklar bilan tenglashsa, global YIM yiliga 12–28 trillion dollargacha o'sishi mumkin. Shuningdek, ayol olimlar ishtirok etgan ilmiy jamoalarda ijtimoiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish va ekologik yondashuvlar kuchliroq namoyon bo'lishi aniqlangan.

Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning ilm-fandagi o'rnini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oxirgi yillar mamlakatimizda ilmiy darajali ayollar soni barqaror o'sib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida va oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilarning 40 foizdan ortig'i ayollardir. 2020–2025-yillar oralig'ida ayol professor va fan doktorlari(DSc) soni qariyb 1,5 baravar ortdi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va iqtidorli xotin-qizlar uchun ilmiy-tadqiqot institutlariga qabul qilishda maxsus imtiyozli o'rinlar ajratilmoqda. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan faqat ayol tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan ilmiy loyihalar tanlovlari o'tkazilmoqda. Bu grantlar fundamental va amaliy loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ilm-fan yo'nalishida yuksak natijalarga erishgan qizlarni yoshligidan qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonlik olimlar ayollar, ayniqsa quyidagi strategik sohalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda. Mahalliy iqlimga mos, sho'rga chidamli yangi navlarni yaratish, tabiiy bo'yoqlar va ekologik toza matolar ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishda ayol seleksionerlarning hissasi beqiyos. "AT-Park" rezidentlari orasida ayollar tomonidan asos solingan startaplarning ulushi yiliga 20 foizga ko'paymoqda. O'zbekistonlik olimlar ayollar bugungi kunda jahonning nufuzli ilmiy markazlari (Kembrij, Oksford, Nagoya, Seul universitetlari) bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib bermoqda. "L'Oréal-UNESCO" mukofoti natijasida o'zbekistonlik yosh olimlar qizlarning ushbu xalqaro tanlovlarda ishtiroki va g'olibligi milliy ilm-fan nufuzini global darajaga ko'tarmoqda. Mintaqaviy darajada Markaziy Osiyo olimlar ayollarining tajriba almashish platformalari yaratilmoqda, bu esa "Suv va iqlim" kabi umumiy muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Sanoat 4.0 sharoitida olimlar ayollarning o'rnini va roli strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning ilmiy-innovatsion faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish zamonaviy sanoat rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Gender tengligi asosida shakllangan ilmiy muhit raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar nafaqat intellektual salohiyat egalari, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi kuchdir. 11-fevral sanasini keng nishonlash orqali biz yangi avlod – "Uchinchi Renessans" bunyodkorlari bo'lmish olimlar qizlarni tarbiyalash uchun poydevor qo'ymoqdamiz. Bilimli ayol – porloq kelajak kafolatidir. Olimlar ayollar – nafaqat laboratoriya xodimlari, balki jamiyatning intellektual arxitektorlaridir. Ularning ilm-fanga to'laqonli jalb qilinishi insoniyat uchun ke- layotgan global inqirozlarni(iqlim, epidemiya, resurslar taqchilligi) hal qilishning eng samarali yo'lidir. Ilm-fan sohasidagi ayol-qizlar kuni bizga shuni eslatadiki, fan jins tanlamaydi, u faqat iste'dod va mehnatni qadrlaydi. O'zbekiston ham bu yo'lga o'z qadamlarini qo'yib, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda. Kelajakda ilm-fan sohasidagi gender tengligi nafaqat inson huquqlari sohasidagi yutuq, balki insoniyatning yangi texnologik va intellektual cho'qqilarga chiqishining kaliti bo'ladi. Ilm-fan sohasidagi ayol-qizlarga bayram muborak bo'lsin!

Gulzoda QOBULOVA,
UrDU "Olimlar qizlar" klubi kotibi,
UrDU tayanch doktoranti,
Xonqa tumanidagi
13-maktabning oliy toifali tarix
fani o'qituvchisi



Millat mulki

Bayramlar – yoshlar tarbiyasining artpedagogik manbayi

Har bir bayram muayyan tarixiy davr, ijtimoiy ehtiyoj va xalqning dunyoqarashi mahsuli sifatida shakllanib, oʻzida milliy qadriyatlar, urf-odat hamda anʼanalarni mujassam etadi. Shu bois bayramlar xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati, tabiat bilan munosabati va ijtimoiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi.

Oʻzbekistonda nishonlanadigan milliy, diniy va davlat bayramlari jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, tarixiy xotirani asrash hamda avlodlar oʻrtasida maʼnaviy merosning uzluksizligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning koʻp asrlik tarixga ega ekanligi xalqimizning boy madaniy merosi va yuksak maʼnaviy salohiyatidan dalolat beradi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda bayramlarning gʻoyaviy-maʼnaviy mazmunini boyitish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish va jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, avvalo, bayramlarni milliy oʻzlikni ifodalovchi va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi muhim madaniy institut sifatida chuqur anglash bilan bogʻliqdir.

Mazkur yoʻnalishdagi davlat siyosatining huquqiy asoslaridan biri Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda qabul qilingan “Oʻzbekistonda bayramlarning gʻoyaviy-maʼnaviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalash-tirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qaroridir. Ushbu konsepsiya olti bobdan iborat boʻlib, unda bayramlarni tashkil etish va oʻtkazish, ularning mazmun-mohiyatini chuqurlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi asosida boyitish, shuningdek, bayramlarning ayniqsa yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi rolini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur konsepsiya bayramlar yosh avlod ongida oddiy dam olish kuni sifatida emas, balki muayyan tarixiy, maʼnaviy va ijtimoiy mazmunga ega sana sifatida muhrlanishiga xizmat qiladi. Maktablarda bayramlar mazmunan toʻgʻri va yoshga mos tarzda tushuntirilishi orqali oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash, tarixga hurmat va ajdodlar merosiga sadoqat hissi shakllanadi. Ushbu konsepsiya oʻquvchilarda vatanparvarlik tuygʻularini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Muqaddas vatan bayrogʻi”, “Gerbim – faxrim”, “Olamni mahliyo aylagan diyor”, “Milliy gʻururim – madhiyam”, “Oʻzbek tili – milliy davlatchiligimiz timsoli” kabi bayramlar doirasida tashkil etiladigan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar orqali oʻquvchilar Vatan tinchligi, erkinlik va fuqarolik burchi tushunchalarini chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa ularning ke-lajakda masʼuliyatli va faol fuqaro boʻlib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Bayram tadbirlarida mehr-oqibat, bagʻrikenglik, kattalarga hurmat, kichiklarga gʻamxoʻrlik kabi fazilatlar targʻib etilishi oʻquvchilar xulq-atvoriga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, sahna koʻrinishlari, ijodiy chiqishlar va jamoaviy tadbirlar orqali bu qadriyatlar bolalar qalbiga yanada chuqurroq singadi. Bayramlarga tayyorgarlik jarayonida oʻquvchilarda oʻz fikrini erkin ifoda etish, tashabbus koʻrsatish, jamoada ishlash koʻnikmalari shakllanadi. Bu esa ularning nafaqat maʼnaviy, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Umumxalq bayramlari nafaqat milliy qadriyatlar-ni ulugʻlash, balki yosh avlodni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ularning salohiyatini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. “Eng iqtidorli yosh” aksiya-shou dasturi va “Biz yoshlarni tadbirkorlikka chorlaymiz” shiori ostida amalga oshiriladigan “Mening startap loyiham” dasturi mazmunan bir-birini toʻldirib, yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. “Eng iqtidorli yosh” aksiya-shou dasturi orqali turli soha va yoʻnalishlarda muvaffaqiyatga erishgan yoshlarni keng jamoatchilikka tanitish, ularning yutuqlarini eʼtirof etish yoshlar ongida ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Bunday tadbirlar yosh avlodga mehnat, izlanish va qatʼiyat orqali yuksak natijalarga erishish mumkinligini amalda koʻrsatadi. Natijada boshqa yoshlar ham oʻz tengdoshlarining muvaffaqiyatidan ruhlanib, oldiga aniq maqsadlar qoʻyishga, bilim va iqtidorini rivojlantirishga intiladi. Bu esa sogʻlom raqobat, oʻziga ishonch va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi.

Konsepsiyada bayramlarning gʻoyaviy mazmunini kuchaytirish taʼlim jarayoni bilan uzviy bogʻliq holda belgilangan. Xususan, umumiy oʻrta hamda oʻrta maxsus, professional taʼlim muassasalarining oʻquv dasturlarini milliy tarix va qadriyatlarini anglash, Vatanga daxldorlik hissini shakllantirishga qaratilgan bayramlar, muhim sanalar va xalqaro kunlarga oid mavzular bilan boyitish muhim vazifa sifatida koʻrsatib oʻtiladi. Shuningdek, **konsepsiyada** taʼlim oluvchilar va pedagoglar uchun oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bayramlarning mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi oʻquv-uslubiy resurslarni yaratish nazarda tutilgan. Jumladan, dars rejalari, uslubiy qoʻllanmalar, shuningdek, audio va vizual multimedia materiallari taʼlim jarayonida bayram mavzularini ilmiy asosda va interaktiv shaklda yoritishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotira va Vatanga masʼuliyat hissini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bayramlarning gʻoyaviy mazmunini kuchaytirishga qaratilgan konsepsiya, avvalo, umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida faoliyatida yosh avlod maʼnaviy tarbiyasini taʼminlashning muhim pedagogik asoslaridan biri hisoblanadi. Konsepsiyada belgilangan vazifalar maktablarda bayramlarni faqat tashkiliy tadbir sifatida emas, balki oʻquv-tarbiya jarayonining uzviy va tizimli tarkibiy qismi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa oʻquvchilarda milliy tarix, qadriyatlar va Vatanga daxldorlik hissining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, maktablarda iqtidorli va tashabbuskor oʻquvchilarni aniqlash, ularni ragʻbatlantirish hamda muvaffaqiyatga erishgan tengdoshlar tajribasini ommalashtirishga qaratilgan interaktiv tadbirlar oʻquvchilar uchun kuchli tarbiyaviy motivatsiya vazifasini bajaradi. Umuman olganda, bayramlarning gʻoyaviy mazmunini kuchaytirishga yoʻnaltirilgan konsepsiya maktab taʼlimi sharoitida yosh avlodni maʼnaviy barkamol, milliy qadriyatlariga sodiq va jamiyat hayotiga faol munosabat bildiradigan shaxs sifatida tarbiyalashda samarali mexanizm sifatida namoyon boʻladi.

Nilufar SHUKUROVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti tayanch doktoranti

Asr muammosi



Soʻnggi yillarda yoshlarning smartfonga haddan tashqari berilib ketishi muammosi tobora yaqqol namoyon boʻlmoqda. Dars payti koʻplab oʻquvchilar oʻqituvchini tinglash, muhokamada ishtirok etish yoki oʻquv materialini ustida fikr yuritish oʻrniga telefonda qisqa videolar tomosha qilib, turli yozishmalar bilan band boʻlishadi. Natijada taʼlim sifati pasayadi, axborot yuzaki oʻzlashtiriladi, bilimga qiziqish susayadi, diqqatni jamlash va mustaqil fikrlash qobiliyati zaiflashadi. Shu sabab oʻqituvchilar keskin choralar koʻrishga majbur boʻlib, oʻquvchilardan smartfonlarini sinfxonaga kirishda maxsus joyda qoldirishni talab qilmoqda.

“Gajetsiz vaqt”ni joriy etamiz

Smartfonlar taʼsirida oiladagi holat ham jiddiy oʻzgarishlarga uchramoqda. Baʼzan birga ovqatlanish, kun davomida boʻlgan voqealarni muhokama qilish kabilar oʻrniga har bir oila aʼzosi oʻz qurilmasi ekraniga shoʻngʻiydi. Ota-onalar va bolalar jismonan yaqin boʻlsalar-da, hissiy jihatdan bir-birlaridan uzoqlashib bormoqda.

Jamoat transportida ham koʻplab tashvishli manzaralar kuzatiladi. Yoshlar keksalar, yosh bolali yoʻlovchilar, homilador ayollarni payqamaydi yoki oʻzlarini beparvolikka solishadi. Bunday xulq-atvor nafaqat gajetlarga qaramlikni, balki ijtimoiy masʼuliyat va boshqalarga hurmatning pasayganini ham koʻrsatadi.

Smartfonlarning taʼlim, oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi xulq-atvor madaniyatiga salbiy taʼsirini kamaytirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, oilada smartfonlardan foydalanish boʻyicha aniq qoidalar oʻrnatish muhim. Masalan, ovqatlanish payti, oilaviy suhbatlar va birgalikda dam olish vaqtida telefondan voz kechish. “Gajetsiz vaqt”ni joriy etish ham foydali boʻlib, bu paytda barcha oila aʼzolari qurilmalarni chetga qoʻyib, bir-birlariga eʼtibor qaratadi. Ota-onalar shaxsiy namuna koʻrsatishlari shart, chunki bolalar kattalarning xulq-atvorini takrorlaydi. Shuningdek, sayr qilish, stol oʻyinlari oʻynash, kitob va filmlarni muhokama qilish kabi qoʻshma mashgʻulotlarni ragʻbatlantirish jonli muloqotni tiklashga yordam beradi.

Ikkinchidan, taʼlim muassasalarida dars payti smartfondan foydalanishni cheklash samarali chora hisoblanadi. Bu darsdan oldin telefonlarni topshirish, maxsus quti yoki yacheykalarda saqlash va ulardan faqat oʻquv maqsadlarida foydalanishga ruxsat beruvchi aniq qoidalarni belgilash orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli qaramlik haqida tushuntirish ishlarini olib borish, oʻquvchi va talabalar-da oʻzini nazorat qilish hamda texnologiyalardan ongli foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish muhim.

Uchinchidan, jamoat joylarida xulq-atvor meʼyorlari – keksalar, yosh bolali yoʻlovchilar va imkoniyati cheklangan shaxslarga hurmat bilan munosabatda boʻlish haqida doimiy eslatib turish lozim. Ijtimoiy reklama, maʼrifiy kampaniyalar va ijobiy xulq-atvor namunalari masʼuliyat va atrof-dagilarga eʼtibor hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Toʻrtinchidan, jamiyatda raqamli gigiyena madaniyatini rivojlantirish zarur, yaʼni smartfon – faqat vosita, hayotning maʼnosi emasligini tushuntirish kerak. Virtual va real hayot oʻrtasidagi muvozanatga bagʻishlangan taʼlim dasturlari, treninglar va muhokamalar qaramlik darajasini pasaytirish va jonli muloqot qadriyatini tiklashga yordam beradi.

Adolat KARIMOVA,
TDIU “Oʻzbek va rus tillari” kafedrası
katta oʻqituvchisi

Maktabga e'tibor – kelajakka e'tibor

ORZULAR ILA YUKSALGAN MAKTAB

Har bir maktabning o'ziga xos tarixi, bosib o'tgan yo'li, sinov va yutuqlari bo'ladi. Shunday maktablardan biri Do'stlik tumani "Saritepa" MFY hududida joylashgan 3-maktabning kechagi kuni va hozirgi faoliyatida qanday tub burilishlar bo'lgani haqida maktab rahbari Munajat Shokirova bilan suhbatlashdik.

– Maktabimiz 1973-yili qurilgan. O'zim ham shu maktabni 2000-yili bitirganman. O'sha payti sinfdoshlardan 2 nafarimiz OTMga o'qishga kirdik. Maktabda kadrlar yetishmasdi, shu bois chet tili, fizika fanlari deyarli o'tilmagan. Hatto bizga maktabni yaxshi baholarga o'qigan bitiruvchilar dars bergan.



Maktabning eski ko'rinishi.

Mustaqillikdan keyin aksariyat o'qituvchilar hududan ko'chib ketdi. Sababi, maktabimiz 70-yillarda o'zlashtirilgan cho'l hududida joylashgan. Hamma har xil joydan ko'chib kelgan edi. Ular qaytib ketishgach, maktab butunlay kadrlar inqiroziga yuz tutdi. 1995-yildan keyin to 2010-yillarga qadar maktab bitiruvchilarining OTMga kirish ko'rsatkichlari tushib ketgandi.

2017-yildan buyon maktab direktoriman. Kadrlar bilan to'liq ta'minlaguncha yaxshigina azob chekkanman. O'sha payti aholi sharoiti og'ir edi, farzandlarini to'garaklarga berolmasdi. Shunday sharoitda hech bo'lmasa bilim sifatini yaxshilash uchun o'quvchilarga to'garak tashkil qildim. Sharoiti og'ir, lekin bilimi kuchli o'quvchilarni o'qituvchilarga doimiy qo'shimcha shug'ullanishga biriktirdim. Ko'p o'tmay o'zim ochgan matematika to'garagida qatnashgan o'quvchilarim OTMlarning matematika-fizika yo'nalishlarini bitirib kela boshladi.

Fan olimpiadalarida matematika, biologiya, ona tili fanlaridan doim g'oliblikni qo'lga kiritib kelganmiz. Uch yil avval viloyat olimpiadasida birinchi o'rinni ham oldik. 2019-yili o'quvchilarimdan biri Jizzax davlat pedagogika universiteti tasviriy san'at yo'nalishiga kirdi. Bu o'sha vaqtda maktabimiz uchun katta yutuq edi.

Bugun maktabimizda 540 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Maktab 100 foiz oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlangan. Mehnatlarimiz natijasi o'laroq, OTMga kirish ko'rsatkichi bo'yicha tumanda birinchi beshlikka kirdik. Bu yil nodavlat, davlat OTMlariga kirganlar 50 foizga yetdi. 95 foiz bitiruvchining bandligi ta'minlandi. 7-sinfida Prezident maktabiga o'qishga kirgan o'quvchimiz Dovud Abduqodirov bu yil "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendianti bo'ldi. Hozir AQSHning Pensilvaniya universitetida Sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik yo'nalishida o'qiyapti. Sobiq o'quvchilarimizdan yana biri Maftuna Chilmirzayeva o'tgan yili Do'stlik tumanidan ilk Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori bo'ldi.

– Ta'lim tizimini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masala bo'lib turgan bir paytda maktab 2023-yili II darajali "Zamonaviy maktab" maqomini olibdi. Sizningcha, bu yutuq zamirida qanday omillar yotadi?

– Do'stlik tumanida 20 ta maktab bor. Ular orasidan faqat 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida II darajali "Zamonaviy maktab" maqomini oldi. Ungacha tumanda hech qaysi maktab bunday ma-

qomni olmagan, faqat "sariq" va "qizil" maktablar toifasiga kiritilgandi.

Maktabimiz "yashil" maktab deb belgilandi. Ushbu maqom maktabimiz holati – fan olimpiadalar, bitiruvchilarning o'qishga kirish ko'rsatkichlari, mutaxassislar bilan ta'minlanganlik, to'garaklar, moddiy-texnik baza to'liq o'rganib chiqilib berildi. Jumladan, ta'lim va tarbiya jarayoni sohasi bo'yicha 137 ball, umumta'lim muassasasini boshqarish bo'yicha 127,3 ball, malakali mutaxassislar hamda adabiyotlar bilan ta'minlanganlik bo'yicha 119 ball, umumta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, infrastrukturasini va jihozlash me'yoriga asosan jihozlanganlik bo'yicha 221 ball, jami 604,3 ball olgan holda "Zamonaviy maktab – 2023" respublika o'rganish natijalariga ko'ra, tuman bo'yicha faqat bizning maktab shunday maqomga ega bo'ldi.

– Bilamizki, ta'lim muassasalarining samarali faoliyati puxta ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasiga bog'liq. 3-maktab rivojlanish dasturiga ko'ra qanday ishlarni amalga oshirayapti?

– 1. Ta'lim sifatini oshirish va kadrlar sifat tarkibini yaxshilash. Maktabda 34 nafar o'qituvchi faoliyat yuritadi. Ulardan 7 nafari oliy, 6 nafari birinchi, 15 nafari ikkinchi toifali pedagog. Mutaxassislar bor-yo'g'i 17,6 foizni tashkil etadi. Oliy va birinchi toifali o'qituvchilar 38 foiz, toifali o'qituvchilar 82,4 foizni tashkil etadi. 30 foiz o'qituvchi xalqaro va milliy sertifikat hamda 50 foizlik ustamalarga ega.

2022-yil 1-oktabrda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Manzura Misirova II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulmira Xolmurodova 2023-yil 8-martda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bugun maktabda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan o'qituvchilar soni 4 nafar.

2. Jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, ular uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish. Ta'lim uchun qulay muhit yaratish maqsadida 2022-yil noyabr oyida homiylik asosida maktab 12 ta smart televizor bilan ta'minlandi. 2024-2025-o'quv yilida homiylik asosida katta monitor olindi. Maktabga interaktiv panel ham olganmiz. Ingliz tili fanidan xorijiy tillar tanlovida o'rin olib, tushgan puldan elektron doskalar xarid qildik. Asosiy rejalarimizdan yana biri maktab hududini devor bilan o'rash edi. 2025-yili rejamiz amalga oshirdi. Maktab ustaxonasini ham "open budget" orqali ta'mirlatdik.

3. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, 2 ta xorijiy til va kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish joriy qilindi. Buning ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-2024-o'quv yili uchun 10-11-sinflarda variativ sinflar tashkil qilindi. 2024-2025-o'quv yili uchun 10-sinflarda tanlov sinflari(matematika, ingliz tili), 11-sinflarda variativ sinflar(tarix, ona tili) ochildi. 10-"A" sinf tarix va ona tili, 11-"A" sinf matematika-fizika fanlari yo'nalishida o'qitildi. Maqsadimiz – o'quvchilarni SAT xalqaro sertifikatlari bilan ta'minlash edi. Bundan tashqari, 2024-2025-o'quv yilidan elektr injenerlik va frilanserlik kabi zamonaviy to'garaklar tashkil qilindi.

4. Maktabda kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish.

5. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan besh tashabbusni amaliyotga tatbiq

etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida Prezidentning 5 muhim tashabbusi bo'yicha muntazam ishlar olib boryapmiz. 3-yo'nalish orasida maktabda kibersportni rivojlantirish maqsadida maktab "Open budget"dan 9 ta zamonaviy kompyuterga ega bo'ldi. Ikki sinf to'liq kompyuter bilan ta'minlandi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish: bog'cha va maktab yoshidagi bolalarga bayram tadbirlarda kiyadigan(atlas ko'ylaklar, oq ko'ylaklar, milliy va xorijiy) kiyimlarni tikib, ijaraga berish hamda dizaynerlik faoliyatini yo'lga qo'yganmiz. 5-yo'nalish bo'yicha qizlarni turli hunar(tikuvchilik, to'quvchilik, karving san'ati, ko'rgazmali narsalar yasash)ga o'rgatyapmiz.

Prezidentning 5 tashabbusi bo'yicha o'tkazilgan shashka musobaqasining respublika bosqichida matematika fani o'qituvchisi Nasiba Bahromova 1-o'rinni egallagan uchun maktabda workout sport maydonchasi qurildi. Shuningdek, 1200 dan ziyod kitob, kompyuter, noutbook, ovoz kuchaytirgichga ega bo'ldik.



Maktabda teatr to'garagi ham bor. Respublikada umumta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Yoshlar teatr studiyalari" festival-tanlovida o'quvchilarimiz Behbudiyning "Padarkush" dramasi bilan ishtirok etib, 1-o'rinni egallashdi. Kitobxonlik tanlovida 3 000 ga yaqin kitob yutib olishdi. Yutuqlar evaziga kutubxonada kitoblar soni ham oshmoqda, hozir bir bolaga 6 tadan kitob to'g'ri keladi.

6. Maktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va infratuzilmasini yaxshilash. Yaqingacha maktab derazalarining hammasi 1973-yilgi, ochsa tushib ketadigan ahvolda edi. 2019-yili Investitsiya dasturiga kiritilib, 1 milliard so'm ajratildi. Shuning hisobiga derazalar va



isitish tizimi almashtirildi. Maktabda o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida 13 ta kuzatuv kamerasi o'rnatdik va "Xavfsiz maktab" loyihasi bo'yicha 2030-yilgacha to'liq kameralashtirish rejalashtirildi.

– Kelgusi rejalar xususida ham to'xtalsangiz.

– 2026-yilda davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan. O'qituvchilarimiz toifasini 50 foizga, milliy va xalqaro darajadagi sertifikatlash tizimi bo'yicha esa 70 foizga ko'tarishni maqsad qilganmiz. Bundan tashqari, maktabda "Yashil makon" dasturi bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda, turli ko'chatlar ekilmoqda. 2026-yili 9-sinf o'quvchilarining 35 foizini kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlayapmiz. 11-sinflarda ham texnikumlarda yaratib berilayotgan sharoitlar, jumladan, har bir o'quvchiga stipendiya tizimi tashkil etilishi haqida targ'ibot ishlarini olib boryapmiz.

"Ma'rifat" muxbiri
Dilafro'z ABDURAJABOVA
suhbatlashdi.

O‘y DUNYODAGI eng katta sovg‘a

O‘qituvchi va murabbiylar kuni men uchun bu dunyodagi eng katta sovg‘ani olgan kunim bo‘ldi. O‘sha kuni ish faoliyatimiz ertalabdan bayramona kayfiyat, ajoyib kuy va qo‘shiqlar bilan boshlandi. Kechga yaqin bayram munosabati bilan tashkil qilingan ziyofatga yig‘ildik. Tadbir tugab, uyga kechroq qaytdim. Farzandlarim uyda dadasi bilan qolgandi. Ularni uxlab qolgandir, degan xayolda edim.

O‘sha kunni eslasam, ko‘zimga yosh keladi, katta o‘glim endi 1-sinfga qadam qo‘ygan.

“Onajon, bayramingiz bilan tabriklayman. Sizga sovg‘a o‘lmadim, ammo o‘z qo‘llarim bilan mana buni yasadim, oling”, dedi. 4x4 cm katakchali 6 varaq, orasi yelimlangan kitob ko‘rinishidagi sovg‘asini ko‘limga tutqazdi. “Kitobcha”ning barcha betlari rangli qalamda to‘liq bo‘yalgan va har bir betiga “Ona” so‘zi yozib chiqilgan.

Ajib bir hayajon bosdi. Beixtiyor ko‘zimga yosh keldi.

O‘zimming baxtli onaligimni his qildim. Kelgunimcha meni xursand qilish, sovg‘a berish kerak degan mas‘uliyat bilan uxlamay sovg‘a yasab kutgan o‘g‘limni quchoqlab oldim.

Bir tomondan farzandim qo‘lidan sovg‘a olganimga quvongan bo‘lsam, boshqa tarafdin o‘qituvchi bo‘laturib, shu yozuvni yozish va narsa yasashni o‘zim o‘rgatmaganim og‘riqli bo‘ldi...

Biz ustoz onalar maktabda barcha o‘quvchilarimizga chin ma’noda qalb qo‘rimiz bilan ilm beramiz. Bilmaganmarini qayta-qayta o‘rgatamiz. Ammo uyda, farzandlarimizga kelganda sabrimiz yetmaydi, ba‘zan. Buni ustoz onalar yaxshi tushunadi.

Shularni o‘ylarkanman, amakimning yaqinda aytdan gaplari yodimga tushdi:

“To‘g‘ri, sen ustozsan, elning bolasini o‘qitasan. Ammo shuni bilib qo‘y, senga bahoni o‘quvchilarning erishgan yutuqlari-yu, cho‘qqilariga qarab emas, uyda farzanding ta’lim-tarbiyasiga qarab berishadi, shuni unutmagan”.

Dilnoza FARHODOVA,
Forish tumanidagi 15-maktabning
fizika fani o‘qituvchisi



Fikr

Baholash mezonlari turlicha talqin qilinmoqda

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar har bir o‘qituvchi va o‘quvchini quvontiradi. Ayniqsa, pedagoglarning har tomonlama rag‘batlantirilayotgani, yoshlarning oliy ta’lim olishi uchun berilayotgan imkoniyatlarni alohida ta’kidlash joiz.

Biroq sohada ayrim muammolar ham ko‘zga tashlanib qolmoqda. Masalan, baholash tizimida an’anaviy ballik tizim o‘miga mezonlarga asoslangan baholash tizimi joriy etildi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kengaytirishga qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bir qator kamchiliklar yuz bermoqda. Qolaversa, ayrim ixtisoslashgan maktablarda bu tizim yaxshi natija berayotgan bo‘lishi mumkin, lekin barcha maktablarda ham elektron platformalar va texnologik infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan.

Baholash mezonlarining noaniqligi esa muammolarga sabab bo‘lmoqda. O‘qituvchilar va o‘quvchilar ko‘pincha baholash mezonlarini turlicha talqin qiladilar, bu adolatsizlik va tushunmovchiliklarga olib keladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy ishlari va

amaliy ko‘nikmalarini baholashda standartlashtirilgan mezonlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Yangi tizimda ko‘proq hujjat va hisobot talab qilinishi o‘qituvchilar yukini oshiradi. Natijada ular dars jarayoniga emas, balki baholash jarayoniga ko‘proq vaqt sarflashga majbur bo‘lishmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilarga turli imtiyozlarni olishni qandaydir testlarga bog‘lab qo‘yganimiz ham ta’lim tizimida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgani sir emas. Bunda ustozlar faqat o‘z bilimini oshirib, maktabda o‘quvchi bilan ishlashga yetarlicha vaqt topolmayapti.

Xulosa qilib aytganda, yangi baholash tizimi zamonaviy yondashuv sifatida ijobiy jihatlariga ega bo‘lsa-da, mezonlarning aniqligi, texnologik ta’minot, o‘qituvchilar yuklamasi va o‘quvchilarning qiziqishi kabi masalalarda kamchiliklar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etmas ekanmiz, ta’lim tizimidan ijobiy natija kutishimiz mantiqsizlik.

San‘at OBIDOV,
Nurota tumanidagi 36-maktab
tarix fani o‘qituvchisi

Bong

823-QARORDAGI O‘ZGARISHLAR:

Ijodkor o‘qituvchi rag‘batlantirilishi zarur

O‘zbekiston ta’lim tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida o‘qituvchi shaxsi va uning mehnatini munosib rag‘batlantirish masalasi turadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrda 823-qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom pedagoglar o‘rtasida sog‘lom raqobatni yuzaga keltirishga xizmat qilib kelmoqda. Biroq har qanday hujjat vaqt sinovidan o‘tishi, kamchiliklari tuzatilishi kerak.

So‘nggi o‘zgarishlar va joriy yildagi baholash mezonlari pedagogik jamoatchilik orasida keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchining ilmiy-ijodiy faoliyati, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlari va maqolalari uchun ball berish tizimining bekor qilinishi ko‘plab savollar tug‘dirmoqda. Xo‘sh, maqolalarga ball berish nega muhim?

O‘tgan yillar davomida o‘qituvchilarning tuman, viloyat va respublika miqyosidagi gazeta va jurnallar, shuningdek, nufuzli veb-saytlarda chop etilgan maqolalari ularning o‘z ustida ishlashidan dalolat bergan. Bu shunchaki matn yozish emas, balki tajriba almashish, ya‘ni bir o‘qituvchining tajribasi butun respublika pedagoglari uchun metodik qo‘llanma vazifasini o‘tardi. Qolaversa, ball olish ilinji bo‘lsa-da, o‘qituvchining jamiyatning eng oldi vakili sifatida dolzarb muammolarga munosabat bildirishi, uni ko‘proq kitob o‘qish, tahlil qilish va fikrini qog‘ozga tushirishga undagan.

Yangi tartibga ko‘ra ushbu bandning olib tashlanishi o‘qituvchini faqat “ish rejasini” doirasidagi qoligga solib qo‘yishdek tuyulmoqda. Agar o‘qituvchi o‘z fikrini yozma ravishda bayon et olmasa, u o‘quvchilarda qanday qilib kreativ fikrlashni shakllantirishi mumkin? Shuningdek, “Sinfdan tashqari ishlar” bo‘limidagi bo‘shliq ham kishini o‘ylantiradi.

Hozir sinfdan tashqari ishlar uchun ball berish tizimi faqat to‘garaklar faoliyati bilan cheklanib qolgan. Albatta, to‘garaklar muhim, lekin o‘qituvchining sinfdan tashqari faoliyati faqatgina to‘garak jurnalini to‘ldirishdan iborat emas-ku?!

O‘qituvchining badiiy asar yozishi, kitoblar nashr ettirishi, o‘quvchilar bilan birga adabiy-badiiy kechalar tashkil etishi – bularning barchasi ijodkorlik emasmi? Zero, ijodkorlik ta’limning asosini tashkil etadi. Xalqaro PISA va PIRLS baholash dasturlarida ham o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashi asosiy mezon qilib olingan. Mantiqiy savol tug‘iladi: ijodiy tashabbuslar yetarli qo‘llab-quvvatlanmagan o‘qituvchi ijodkor o‘quvchi tarbiyalay oladimi? Qaroring yangi tahririda “ijodkorlik” bo‘limining deyarli yo‘qligi pedagoglarni quuruq statistik ma’lumotlar to‘plash, faqat hisobot uchun ishlashga majbur qilmoqda. OAVga maqola yozishni to‘xtatgan o‘qituvchi – jamiyatdan uzilgan, faqat darslik doirasiga qamali qolgan mutaxassis demak. Shaxsning tanqid emas, balki tizimni takomillashtirishdir.

Mutasaddi tashkilotlar quyidagi jihatlaraga e’tibor qaratishga maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- Agar o‘qituvchining metodik yangiligi OAVda yoritilsa, bu uning kasbiy mahoratining isboti sifatida baholanishi shart;

- Ijodiy loyihalar uchun alohida band: faqat to‘garak emas, balki o‘qituvchining mualliflik dasturlari, badiiy ijodi va innovatsion g‘oyalari uchun ball joriy etilishi kerak;

- Sifat ko‘rsatkichi: maqolalar soniga emas, ularning sifati va ijtimoiy rezonansiga qarab ball beradigan tizimni ishlab chiqish lozim.

Xulosa o‘rnida, ma’rifatparvarlik an’anasi to‘xtab qolmasligi uchun o‘zbek ma’rifatparvarlari – jaddid bobolarning ham avvalo gazeta nashr qilishgan, maqolalar yozib xalqni uyg‘onishgan undagan. Ijodkor o‘qituvchi – millatning uyg‘oq vijdonidir. Bugungi kun o‘qituvchisi ham zamonaviy jaddid bo‘lishi kerak. 823-qarordagi o‘zgarishlar o‘qituvchini ijoddan sovtqirmasligi, aksincha, uni yangi marralarga undashi lozim. Uning qalami to‘xtasa, jamiyatda fikrlar qashshoqlashadi. Umid qilamizki, vazirlik ushbu jihatlarini qayta ko‘rib chiqadi va o‘qituvchining ma’naviy-ma’rifiy mehnatini munosib baholashda davom etadi.

Sayyora YORQULOVA,
Olmaliq shahridagi 14-maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Ogohlik davr talabi

Bugungi kunda shaxsiy ma’lumotlar faqatgina telefon raqamlari yoki pasport ma’lumotlaridan iborat emas. Ushbu ma’lumotlar fuqarolarning yashash manzili, bank hisoblari, sog‘ligi hamda shaxsiy hayotiga oid boshqa ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu kabi axborotning notanish qo‘llarga tushishi moliyaviy firibgarlik, shantaj va turli kiberhujumlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Shaxsiy ma’lumotlar - asosiy xavfsizlik masalasi

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan zamonda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish ichki ishlar organlari oldidagi eng muhim vazifalaridan biri. Har bir inson mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn bank xizmatlari va elektron davlat xizmatlaridan foydalanmoqda. Ushbu qulayliklar bilan bir qatorda, shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish xavfi ham ortib bermoqda.

Hozirgi kunda 31 milliondan ortiq fuqaro raqamli servislaridan faol foydalanmoqda. Shuningdek, internetda sodir bo‘layotgan jinoyatlar soni ham keskin ko‘paygan. So‘nggi 5 yil ichida kiberjinoyatlar soni 68 baravar oshgan. Faqat joriy yilning o‘zida 46 000 dan ortiq holat aniqlangan bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 1,2 trilion so‘mdan oshdi.

Afsuski, ichki ishlar organlari amaliyotida shaxsiy ma’lumotlarning sizib chiqishi va noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq jinoyatlar tobora ko‘p qayd etilmoqda. Firibgarlar fishing saytlar, soxta SMS-xabarlar, banklar yoki davlat idoralari nomidan qo‘ng‘iroqlar orqali fuqarolarni aldamoqda. Ko‘p holda fuqarolar o‘zlari bilmagan holda maxfiy ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etmoqda.

Ichki ishlar organlari ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Kiberfiribgarlikni aniqlash va bartaraf etish kuchaytirilmoqda, telekommunikatsiya hamda moliya tashkilotlari bilan hamkorlik takomillashtirilmoqda, zamonaviy raqamli monitoring va tahlil vositalari joriy etilmoqda. Shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonunchilik talablariga rioya qilinishi ustidan qat’iy nazorat yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta’minlash faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasida emas. Fuqarolarning o‘zi ham shaxsiy ma’lumotlarini asrashda mas’ul bo‘lishi zarur. Tasdiqlash kodlari, bank karta rekvizitlari va parollarini notanish shaxslarga bermaslik, shubhali havolalarga kirmaslik, ishonchsiz axborot manbalariga ishonmaslik muhimdir.

Ayniqsa kexsa yoshdagi fuqarolar v a yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalishda ichki ishlar organlari profilaktik tadbirlar va tushuntirish ishlari olib borib, ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda.

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish – mavhum tushuncha emas, balki har bir insonning kundalik xavfsizligiga bevosita ta’sir qiluvchi masala. Faqatgina davlat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolarning hamkorligi orqali shaxsiy axborotlar himoyasini ta’minlashimiz mumkin.

Shohrux JUMABOYEV,
katta leytenant

Ilm-fan yo‘lida

Ilm-fan taraqqiyotida ayollar: tarix, bugun va kelajak

Tarixda gender notenglik va jamiyatdagi to‘siqlarga qaramay, ko‘plab ayollar o‘z sohasidagi misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishgan. Jumladan, Mariya Skladovskaya-Kyuri radioaktiv yo‘nalishda inqilobiy yangiliklar yaratib, ikki karra Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan. Uning ilmiy ishlari nafaqat ilm-fan rivojiga hissa qo‘shdi, balki onkologik kasalliklarni davolashda yangi usullar paydo bo‘lishiga olib keldi.

Rozalind Franklin, mashhur kimyogar va rentgenolog, DNK tuzilishidagi ixtirolarda asosiy o‘rin tutgan. Uning izlanishlari genetik mexanizmlar va biologiya sohasidagi yangi tushunchalar shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, biolog va genetika sohasidagi olimia Janna Guttman-Mendeleyeva nasliylilik va evolyutsiya tushunchalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston olimia ayollari ham ilm-fan tarixida munosib o‘rin egallaydi. Kimyogar olimia, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi va professor Zarifa Saidnosirova ilmiy faoliyati bilan yoshlarga o‘rnak bo‘lgan. Shu bilan birga, shifokorlar Tamara Oripova, Flora Inoyatova, mikrobiolog Mashhura Mavloniy, yuqori molekulari birikmalar kimyosi sohasida Sayyora Rashidova, filolog va sharqshunos Dilorom Yusupova kabi olimalarimiz ham ilm-fanning yulduzlari sifatida tanilgan.

Yosh avlod olimalari ham dunyo miqyosida e’tirof etilmoqda. Dilfuza Egamberdiyeva, Barno Sultonova, Nilufar Mamadaliyeva, Muhayyo Rasulova UNESCONing “Lo Real” stipendiyasi sohibalari bo‘lishgan. Dilnoza Dutarayeva, Aziza Shonazarova kabi yosh olimalarimiz esa xorijiy universitetlarda ilmiy faoliyat olib borishmoqda. Bu yutuqlar O‘zbekiston ayollarining aql-u zakovati va ilmiy sahohiyati yuqoriligini namoyon etadi.

Ayollarning ilm-fandagi nufuzi va o‘rnini yanada oshirish uchun dolzarb masalalar mavjud: olimalarga ijtimoiy muammolarni hal etishda yordam berish, tadqiqotlar uchun tashkiliy imkoniyat yaratish, gender diskriminatsiyasini bartaraf etish, ilmiy mukofotlar va grantlarni kengaytirish, xorijiy стажirovkalar va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash. Bu chora-tadbirlar ilm-fanni nafaqat taraqqiyot drayveriga, balki ijtimoiy taraqqiyot generatoriga aylantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda davlat va jamiyat ayollar faolligini oshirish, ularning mavqeyini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida amaliy ishlarni olib bormoqda. Ilm-fan sohasida izlanayotgan olimia ayol-qizlar har tomonlana qo‘llab-quvvatlanib, ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ular jamiyatimizning ma’naviy va ilmiy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shib kelmoqda.

Ayollarimizning ilm-fandagi ulkan yutuqlari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham O‘zbekistonning obro‘sin oshirmoqda. Ularning ilmiy mehnati, yangilik va izlanishlari kelajak avlodlarga ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Dilnoza JUMAYEVA,
O‘ZR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti
“Koloid kimyo va sanoat ekologiyasi” laboratoriyasi
bosh ilmiy xodimi, texnika fanlari doktori, professor

Mulohaza

Zamonaviy o‘qituvchi ma’naviyati qanday bo‘lishi kerak?

Ko‘pincha ta’limda o‘qituvchilarning o‘z fanini chuqur bilishiga urg‘u beriladi. O‘qituvchi bilim saviyasidan tashqari odob-axloq, muomala madaniyati, kiyinishi, obro-e’tibori bilan hammaga o‘rnak bo‘lmog‘i kerak. Halol, vijdonli, o‘z xatti-harakati, to‘g‘riso‘zligi bilan maktabda, xalq orasida hurmat-izzatga ega bo‘lishi o‘qituvchi obro‘sining oshishiga yordam beradi. Shu xususida bir kishi bilan subhatda bo‘ldim.

– Uym oldidan har kuni o‘quvchi va o‘qituvchilar maktabga qatnaydi. Ba’zi o‘qituvchilar mendan kichik bo‘lishiga qaramay salom bermaydi, aybim oddiy ishchi bo‘lganimmi? Ayrim o‘qituvchilarning esa hatto bir-biri bilan kalla urishtirib ko‘rishayotganining guvohi bo‘lganman. Shular yoshlarimizga milliy salomlashish odobini o‘rgatadimi?!

Yaqinda bir maktabga ijodiy uchrashuvga taklif qilishdi. Bir ayol o‘qituvchi shunday yupqa ko‘ylak kiyganki, siyabandi tugmalarigacha ko‘rinib turibdi. Ba’zi o‘quvchilarning o‘qituvchilarga taqld qilishga intilishini ham hisobga olish kerak, axir. Butun dunyo tan olgan tarbiya vositasi – shaxsiy o‘rnak bo‘lishdir.

Yana bir achinarli holat shuki, ayrim o‘qituvchilar xalq ta’limiga doir gazeta-jurnallar, badiiy kitoblarni o‘qimaydi. Fikrimcha, umumiy o‘rta ta’lim tizimimiz majburiy ta’limga asoslanganini hisobga olsak, o‘qituvchilarimiz ham mustaqil bilim olib, o‘z ustida ishlash, xalq ta’limiga doir gazeta-jurnallarni o‘qib borishga majbur. Bundan tashqari, har bir fan o‘qituvchisi kompyuter va texnikalarni mukammal bilishi kerak. Yana maktabi, qishlog‘i, tumani va viloyatining tarixini yaxshi bilishi shart. Mashhur pedagoglarimizning yangi adabiyotlari, tuman, viloyat, Respublika miqyosidagi yozuvchi-ijodkorlar, shoirlarni bilishi va doimiy kuzatib borishi kerak. O‘qituvchi o‘z fanini qanchalik kuchli bilmasin, yuqoridagi kamchiliklarga ega, ma’naviyati past bo‘lsa, uning qo‘liga yoshlarimizni tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani topshirib bo‘lmaydi.

Po‘lat MANSUROV,
faxriy o‘qituvchi

Faxr

MUSTAFONING OHANGLARI SEHRI



Mustafo kichikligidan musiqani juda yaxshi ko‘rardi. Dadasi dovul chalardi. Shuning uchun Mustafo kuy va ritmlar ichida ulg‘aydi. U hatto maktabga borishdan oldin ham cholg‘ularni ushlab ko‘rishga qiziqar, qo‘liga tushgan hamma narsadan ohang chiqarishga urinardi.

Maktabga chiqqach, musiqa o‘qituvchisi Mustafoning iste’dodini darrov payqadi. Mustafo musiqa to‘garagiga yozildi. Har hafta to‘garak mashg‘ulotlariga muntazam qatnashib, cholg‘u ijrosini mehr bilan mashq qilay, ustozining ko‘rsatmalarini diqqat bilan bajarardi. Oradan bir yil o‘tdi, Mustafoning musiqiy bilimi oshib to‘garakning eng faol o‘quvchilari-dariga aylandi.

Voyaga yetmagan havaskor yoshlar o‘rtasida “Ohanglar sehri” ijodiy ko‘rik-tanlovi e’lon qilinganida Mustafo ham qatnashishga qaror qildi. U to‘garak mashg‘ulotlari davomida kuyni

mukammal chalishni o‘rgandi. Nihoyat tanlov kuni sahnaga chiqqan Mustafo dovul chala boshladi. Uning jarangdor ohangi tomoshabinlarga ko‘tarinki ruh bag‘ishlash bilan birga, barchani raqsqa chorladi. Tinglovchilar olqishlaganda Mustafoning yuzida tabassum paydo bo‘ldi. Hakamlar esa uni faxrli o‘rin bilan taqdirladilar.

Uyga qaytgach dadasi uni quchib: – Men sen bilan farxlanaman, o‘g‘lim. Musiqa – oilamiz uchun meros. Sen uni yanada chiroyli davom ettirypasan, – dedi.

Mustafo esa quvonchga to‘lib: – Dada, men hali juda ko‘p chiroyli kuylar yarataman. Ularda sizning dovulingizdek jo‘shqinlik bo‘lishini istayman! – deb jilmaydi.

Shu kundan boshlab Mustafoning musiqa haqidagi orzulari yanada kattalashdi.

Mustafo mening o‘quvchim. U haqida yozishimdan maqsadim esa: aksariyat holatlarda bolaga qobiliyat, iste’dod ota-onadan o‘tadi. Ota-onalar qanchalik kitobsevar, san’atsevar bo‘lsa va boladagi bu layoqatga befarq bo‘lmasa, o‘qituvchilar ham bolaning iste’dodini ilg‘ab, unga e’tibor qaratsa Mustafo kabi iste’dodli o‘quvchilarnimz safi ortadi.

Gulxumor XUDOYBERDIYEVA,
Beshariq tumanidagi 11-maktabning musiqa
madaniyati fani o‘qituvchisi

Masalan:

Bola sariq kasal bo‘lsa, sariq sazanning sho‘rvasiga yuvin-

tirish;

► Bo‘yniga tepki chiqsa, egiz tuqqan ayolga teptirish(Onam egiz tuqqan. Tez-tez qishloq bolalarini olib kelishar, onam shunchaki irimiga sekin tepgan bo‘lib oyog‘ini tekizib qo‘yardi);

► Ko‘z tegdi deb hisoblashsa, gumon qilingan shaxsning kiyimidan yashiriqcha qirib kelib isiriqqa qo‘shib tutatish;

► Ko‘zikkan bolani itning yalog‘iga suv solib cho‘miltirish;

► Yangi kelin tushsa, yangi chaqaloq tug‘ilsa, kimdir qattiq og‘rib shifoxonada yuq davolanib uyga kelsa, uyga kirmasdan burun kichkina olovcha yoqib uning ustidan hatlab o‘tkazish;

► Yangi qurilgan uy ustunlariga qalampir, tuz osib qo‘yish(yomon ko‘zdan asraydi)...

Sanoqni yana ancha davom ettirish mumkin. Bu kabi vaziyatlar bolalikda ko‘z o‘ngimizda qayta-qayta takrorlangan. Aslida bularning ma’no-mohiyatida ne chog‘li mantiq yoki foydali tomoni bor? Nima uchun ota-bobolarimiz shunday qilishgan va buni to‘g‘ri deb bilishgan?

Bular shunchaki irim-sirim, bid‘atlarimi? Yoki o‘tmish zamondardan qolgan eskilik qiziqi? (Masalan, olovdan sakrash marosimini zardushtiylik dinidan qolgan deyishardi). Balki dono ajdodlarimizning qimmatli o‘g‘itlarida o‘rganishimiz lozim bo‘lgan haqiqatlar mavjuddir?

Fikrlaringizni kutaman.

Salomat ESHIMBETOVA,
Beruniy tumanidagi 12-maktab o‘qituvchisi

Elda aziz



Shermurod Subhon – avangard, shu bilan birga, serqirra ijodkor. U, avvalo, shoir, keyin tarjimon, munaqqid, essenavist va suratkash(fotograf) ham. Otasi Subhonov Sherqul 1933-yili tugʻilgan. Mohi Xossa muzeyida hamda shu nomdagi sobiq butunittifoq buyrak kasalliklari sanatoriysida suratkashlik va kinomexaniklik bilan shugʻullangan. Vaqtida Sherqul ota sheʼr mashq qilib, yaqinlariga oʻqib berib yurgan.

Onasi Subhonova Mayram(1935–2009) esa, oʻgʻli Shermurod Subhonning aytishicha, 2 yillik Toshkent farmatsevtika texnikumini bitirib Buxoroga qaytgach, otasiga turmushga chiqib, muayyan vaqt dorixonada ishlagan. Biroq koʻp oʻtmay, rus tilini yaxshi bilgani uchun pochta rahbari qilib tayinlashadi. Shoirning adabiyotga qiziqishida otasidan ham koʻproq onasining taʼsiri bor: Mayram opa kechki payt yoki dam olish kunlari uyda oʻzbekcha, ruscha gazeta, jurnal oʻqishdan tashqari, bir qator rus hamda gʻarb yozuvchilarining asarlarini oʻqirdi. Kitob oʻqirgan, baʼzan qiziq, baʼzan qoʻrqinchli – detektiv holatlar aks etgan joyi kelganda, qattiq taʼsirlanganidan bolalarning diqqatini tortib, voqealarni bayon etardi. Shoir buni keyinchalik shunday eslaydi: “Onam koʻpincha ruscha kitob oʻqirdi. Kitobning nomi hozir esimda yoʻq, qaysidir ekspeditsiya aʼzolarining gʻorda qolib ketib, u yerda duch kelgan qiyinchiliklari, chekkan azoblarini hayajonlanib tafsiloti bilan gapirib berganini yaxshi eslayman”.

Koʻrinadiki, ota-ona va ular oilada yaratgan adabiy muhit Shermurod Subhonning ilk ustozlari boʻlgan(Shu oʻrinda yana bir qistirma gap: men talabalik yillarimda Sherqul ota va Mayram opalarning xonadonida bir hafta mehmon boʻlib, suhbatlarini olganman, tuzlarini totganmanki, Olloh ulardan rozi boʻlsin!).

Shu choqqacha Shermurod Subhonning quyidagi kitoblari(tarjimalari bilan birga) oʻquvchilar qoʻliga yetib bordi: “Oʻzbek modern sheʼriyati”(hammualliflikda nashrga tayyorlagan, 2003); “Sheʼriyat iqlimi”(adabiy-tanqidiy maqolalar, 2005); “Sokin soʻz suvrati”(sheʼrlar, 2013); Burhon Sharafning “Buxoro maktublari”(tatar tilidan tarjima, 2014); Eluja Otali, “Oʻzing kel”(sheʼrlar, nasriy parchalar tarjimasi, 2016); “Sukunatning sassiz sadosi”(sheʼrlar, 2023); Mehmet Fuad Koʻprulu, “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar”(tadqiqotlar, tarjima, 2025); “Sesizliğin Sesi”(sheʼrlar, 2025). Shuningdek, 2022-yili chop etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” 100 jildligining 42- va 53-jildlari uchun turk ijodkorlaridan Mehmet Oʻnderning “Mavlono” asari, Hayrettin Ivginning “Manas” romani hamda Sazoiiy Qoraqoʻch bilan Joʻshqin Qorabulut sheʼriy toʻplamlarini oʻzbek tiliga tarjima qilib, nashrga tayyorlagan.

Kamina Shermurod aka(biz uni oʻzi tugʻilib oʻsgan joy talaffuziga moslab “Akasher” deymiz, shunga koʻnikkanmiz) bilan universitetga kirish imtihoni vaqtida tanishganman. Oʻshanda chekimizga tushgan savollarga javob topishda bir-birimiz bilan maslahatlashganimiz yodimda bor. Endi koʻringki, umr yoʻllarimizda hayot-u adabiyot berib kelayotgan savollarga javob izlashda ham hamfikir-u hammaslakmiz. Akasher bilan hozirgi OʻzMUning oʻzbek filologiyasi fakultetida(1988–1992) bitta kursda tahsil olganmiz. Keyin chet elga, Turkiyaga oʻqishga ham birga ketganmiz. Esلاسak, eslagulik xotiralarimiz koʻp.

Akasher universitetga hamma narsani bilgan, Dostoyevskiy aytgan barcha “jiddiy kitoblar”ni “oʻqib tushirgan” holda kelmadi, biroq u sergʻayrat, serorzu talaba boʻlganligi – chin. Muhimi, uning toza, hatto aytish mumkinki, top-toza yuragi bor. U shular

Shermurod Subhon

(Ijodkorning 60 yillik yubileyi)



ga suyanib yoʻlga chiqdi. Boʻlajak shoir va tadqiqotchi oʻz ustida uzoq, lekin sabr bilan, matonat bilan ishladi, yurtida, soʻng chet elda tahsil koʻrdi. Turli-tuman el vakillari bilan tanishdi, ularning turfa xil kitoblarini oʻqidi. Xuddi shunday, ayrim ijodkorlarning oʻzlari bilan hamsuhbat boʻldi, ularning badiiy olamidan taʼsirlandi, ayrimlarini tarjima qildi. Shu tarzda u oʻzini ham tarbiyalab bordi. Natijada bugun biz qarshimizda ortida talay yaxshi ishlar – sheʼrlar, tarjimalar, adabiy-tanqidiy maqolalar, esselar, xotiralar qoldirib ildamlayotgan 60 yoshli munkillagan cholni emas, yoʻq, ayni kuchga, tajribaga toʻlgan, ixcham jussali, pahlavon yurakli Shermurod Subhonni koʻrib turibmiz.

Shermurod Subhon – avangard shoir. Akasher qisqa yozadi. Bunga yorqin misol – sheʼrlari. Uning koʻpgina sheʼrlarini yaxshi koʻrib, yoddan aytib, tahlil qilib yuraman. Shu maʼnoda “Oz soʻzda koʻp maʼno ifoda qilish boʻyicha oʻzi bilan oʻzi musobaqalashib yuradigan shoir kim?” desangiz, hech ikkilanmay Shermurod Subhonni koʻrsataman. Uning ayrim sheʼrlari zamonaviy avangard sheʼriyatning goʻzal namunalari sifatida oʻquv qoʻllanmalari, darsliklarga kiritilgan.

Albatta, sheʼrlarining hammasini ham nishonga aniq urilgan oʻq deb boʻlmaydi. Oʻzi qaysi shoirning sheʼr deb “otgan” barcha “oʻqlari” nishonga aniq tegibdiki, Sher akaniki tegsa. Biroq nishonning markaziga kelib “sanchilgan” shunday yaxshi sheʼrlari bor, ularni bir oʻqishda yodlab olasan, kishi. Masalan, ikki sanʼat turi kesishgan nuqtada tugʻilgan quyidagi sheʼrni olaylik:

*diqqat
kulib turing
suvratga olaman
chiq*

*qoyilmisiz
jo ayladim sizni
bir umr qalbg*

Sheʼr fotografiya sanʼati bilan bogʻliq. Sh.Subhonni taʼrif etarkan, suratkashligini ham eslagandik. Gap shundaki, Sher akaning otasi Sherqul ota(hozir 92 yoshda!) Mohi Xossa muzeyida hamda sanatoriysida kimsan – Raj Kapur, Amitabx Bachchan, Xema Malini, Goyko Mitich kabi dunyo kinoyulduzlari, shuningdek, Komiljon Otaniyozov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov, Yoqub Ahmedov, Klara Jalilova kabi sanʼatkor, aktyorlarni suratga olgan. Sherqul otaning xuddi shu hunari oʻgʻli Shermurodga yuqqan(Shu oʻrinda, Akasherning yana bir hu-

nari – tor chertib ashula aytishini ham eslab oʻtgim keldi). Talabalik vaqtimizda Akasher bizni suratga olib, kechasi bilan rasm ishlab, kunduzi tarqatardi. Bu ishda meni oʻziga sherik qilib olgan vaqtlari ham koʻp boʻlgan. Xuddi shu hunar – fotografiyaga xos boʻlgan belgilar yuqoridagi moʻjaz bitikda sheʼriyatga koʻchib oʻtyapti, natijada ikki sanʼat kesishgan nuqtada chiroyli bir asar dunyoga kelyapti: suratkash inson suvratini fotoapparatga joylasa, shoir qalbga jo qilmoqda. Fotograf harakatida ish(yumush) tushunilsa, shoir harakatida ishq his qilinadi. Yaʼni fotograf, odatda, tashqi dunyoning botiniy – vizual holatiga eʼtiborni qaratsa, shoir zohiriy olam – inson ruhiyati bilan bogʻliq shuurosti tuygʻu-tushunchalarini qalamga olmoqda. Qolaversa, bunday uygʻunlikni “Sukunatning sassiz sadosi” sheʼriy toʻplamining orqa muqovasida shoirning oʻzi eʼtirof etgan quyidagi dil soʻzlari ham tasdiqlaydi: “Rassom, deya javob berardim bolaligimda “kim boʻlmoqchisan?” deb soʻraganlarga doim. “Kimning rasmini chizmoqchisan?” deb soʻraganlarida esa, “odamni” deb qoʻya qolardim. Yillar oʻtib rassom emas, shoir boʻldim, achinadigan joyi yoʻq. Zero, shoirlik ham inson deb atalmish xilqat ruhiyatining rangin lahzalarini chizish emasmi?!”. Ha, avangard shoir Sh.Subhon qisqa satrlarda voqelikni ramzlashtiradi:

*hamma shoir emas
shoir hammadir*

Demak, biz koʻrib-bilib yurgan odamlarning hammasi ham shoir boʻlavermaydi, lekin shoir hamma boʻla oladi. Bu nima degani? Shoir katta ketmayaptimi? Yoʻq, aslo. Bu yerda boshqa, kutilmagan maʼno yashirilgan. Taqdir zimmasiga yuklagan vazifaga koʻra shoir hammaning dardini, qismatini tushunishga, his qilishga mahkum, degan fikr bor boʻlib, u beshtagina soʻzdan iborat sheʼriyatning moʻjaz “qasri”ga berkitilgan. Demak, haqiqiy shoir kim degan savolga oʻzi-ga xos, va eng muhimi, ijodkorning qanday boʻlishi kerakligiga mos javob berilgan. Endi manavi sheʼrni oʻqing:

*ketishingni kutmagan edim
kelishingni kutganim-kutgan*

Ifoda juda sodda, lekin shu sodda ifoda zamirida oshiq va maʼshuqaning ziddiyatli, shu bilan birga, olovli muhabbati, nozik munosabati aks ettirilgan. Qarshilantirilgan goʻzal soʻz oʻyinlari(tazod) mavjud: ketishing-kelishing, kutmagandim-kutgandim(kutaman). Shuning uchun ham auditoriyada sheʼrni oʻqishingiz bilan talabalar harakatga kelishadi-da, qogʻoz-u qalam topib “qitir-qitir” qilib yozib olishadi. Bu shoir uchun baxt emasmi?!

*yurak yer yuzining tayanch nuqtasi
koʻtarsammi dast?!*

Ikki misrada ikki botmon maʼno mujassam. Arxi-medning “tayanch nuqtasini topib bering, yerni koʻtaraman (agʻdarib tashlayman!)” degan ming yillik murojaatiga javobdek yangraydi ushbu sheʼr. Yaʼni shoir sheʼrda tayanch nuqtani topadi. U – inson yuragi, koʻngli. Chindan ham, koʻngil bormi, xotirjammi, demak, hammasi joyida. Bunday odamga yer yuzining borliq muammosi – chikora.

Bu kabi sheʼrlarni yangilanib borayotgan, taʼbir joiz esa, modern, postmodern ruhli adabiyotimizning totli mevalari, deb ayta olamiz. Buni hech tortinmay, xijolat ham boʻlmay, eng muhimi, ikkilanmay aytish mumkin va kerak. Ammo bir izoh berib oʻtsam: har

ijodiy portretiga chizgilar

munosabati bilan yozilgan TO‘Y TAQRIZ)

qanday yangi hodisaning qulog‘idan tortib olib borib “modernizm”, “postmodernizm”(umumiy nomi – “avangardizm”) deb atalgan mamlakatlarning “vatan-doshi” aylashga urinish kerak emas. “Izm”lar juda ham shartli bir tushuncha. Ya’ni san’at-u adabiyotdagi har qanday yangilikni insoniyatning badiiy tafakkur yo‘lidagi bir-ikki bosqichga tirkashni maqbul yo‘l deb bo‘lmaydi. Yangilanish bu – azal-abad hayot-voqelik taqozosi. Voqelik har doim yangilanib boradi. “Izm”lar shu voqelikning turli-tuman kayfiyati, aslida.

Yangilanishlarning totli mevalaridan totinib yashash esa – oson yumush emas. Badiiy-estetik tafakkurimiz an’anaviy she’riyatga ko‘nikkani, hatto unga mutelarcha bog‘lanib qolgani bois, ko‘pincha, eng oddiyimizdan akademigimizgacha “she’ringizni tushuntirib bering!” qabilida harakatlanamiz, so‘z aytamiz. Uzoqqa bormaylik, ana, ota bilan o‘g‘il orasida kechgan suhbatni Sh.Subhonning o‘zi qalamga oladiki, quloq tutamiz:

“Uydagilarni sog‘inib Toshkentdan Buxoroga borganimda, gap orasida 88 yoshli otamdan eshitgan tanbeh shu bo‘ldi:

– *Sen qanaqa shoirsan, yozgan she’rlaringni umuman tushunib bo‘lmaydi. Na qofiyasi bor, na nuqta-verguli. Buning ustiga kichik harflar bilan yozasan. Maktabda o‘qiganmisan o‘zi?! (“Sokin so‘z suvrati” to‘plamidagi she’rlarim haqidagi gaplari).*

– *Qofiyali she’r yozolmasam nima qilay?* – deyman gapni ko‘paytirmaslik uchun.

– *Unday bo‘lsa, she’r yozma!*

– *Xo‘p!* – deyman va darhol gapni boshqa yoqqa buraman. Aks holda, tanbeh uzooq cho‘zilishini bilaman-da...”

Ushbu ajoyib dialog badiiy didi an’anaviy yoki avangard ruhda tarbiya topganlar o‘rtasidagi “tushunmovchilik” suvratini juda aniq va tiniq ifodalab berganligi bilan ham qimmatga ega. Biroq Shermurod o‘g‘ilning nishonga tegmagan “o‘qlari” – she’rlari anchagina ekanligini yodga olsak, Sherqul otaning haqli tomonlari ham borligini tan olishga to‘g‘ri keladi. Ya’ni yangi adabiy yo‘nalishlarda yozilgan har qanday matn emas, balki san’atga aylangani qimmatga ega. Bu yerda ham bosh o‘lchov o‘sha azaliy mezon bo‘lib, oti badiiylkdir. “Badiiylk – bosh mezon” degan gaplar shunchaki aytilgan emas.

O‘zbek modernist shoirlarining yosh jihatdan oqsoqoli – Tursun Ali Shermurod Subhon she’rlari tahlili misolida modernizmni go‘yo tushuntirmoqchi, uni himoya qilmoqchi bo‘ladi. U “Majoz oralab” nomli maqolasida yozadi: “*Shoir vergul, nuqta, undov, so‘roq kabi tinish belgilarini she’r matnidan “badarg‘a qiladi”. Birona satr an’anaviy she’rlardagi kabi bosh harf bilan boshlanmaydi. Muallif hayotning uzluksiz oqimini shu taxlit ifoda etayotgandek. Zero, modern she’rlarni tahlil qilish oson emas. Ularda ma’no, mazmun turli so‘z o‘yinlariga ko‘milgan bo‘ladi. Shakl o‘quvchini shoshirib qo‘yadi”. Aytish joizki, ushbu mulohazalarida oqsoqol shoir mo‘ljalni to‘g‘ri olgan. T.Ali va Sh.Subhon – har ikkisinin ham ustozlari buyuk shoir Rauf Parfi yozadi: “*Shermurod Subhon she’rlari ham bir qarashda qattiq shakllarga ko‘nikkan kitobxon uchun biroz erish tuyuladi. Ammo bu hol tezda o‘tib ketadi, so‘zning jozibasini his eta boshlaysiz, o‘zingiz kutmaganda “Ko‘z tekkanga o‘xshaydi oyga bu kecha”, “Hissiz xattot shamol”, “Menga ishonib yashaydi soya”, “Yurak – yolg‘izlikka jar solgan go‘dak” kabi satrlar sizning tuyg‘ularingizga tega boshlaydi”. Ushbu fikrlar Sh.Subhonning “Soya” to‘plamiga yozilgan so‘zboshidan. So‘zboshining boshqa yerida Rauf aka yana xitob qiladi: “She’riyat – bu ozodlikdir”.**

Demak, Sh.Subhon she’riyatidagi, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘ziga xos “shaklsizlik”ni Rauf aka shoir ruhiyatidagi ozodlik bilan bog‘lamoqda. Modern shoir B.Ro‘zimuhammad ham ushbu she’riyatga muayyan chizgilar chizadi: “Postmodern tanlagan obyekt: ong hamda shuurosti qavatlar. Til bu bosqichga ko‘tarilayotib, tushuntirish quvvatini yo‘l-yo‘lakay tark etadi. Til shuurosti qavatlariga “zarb” yo‘llaydi. U yerdagi nuqtalarni uyg‘otadi, chayqatadi, jimirlatadi, silaydi, siypalaydi...” (“Shuurostiga yo‘naltirilgan ta’sir” maqolasidan. “Guliston” jurnali, 2014-yil 3-son).

Boshqa bir o‘rinda B.Ro‘zimuhammad shoirning milliy she’riyatimizda tutgan o‘rniga quyidagicha izoh beradi: “Shoirlarimiz orasida faqat sarbast vaznida she’r yozadiganlari oz. Sarbastchilarning aksariyati(Rauf Parfi, Mir‘aziz A‘zam, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor kabi) aruz, barmoq vaznida durdona asarlar bitganini bilamiz. Shermurod Subhon esa sarbast vazniga sodiq qolmoqda va bu vaznning imkoniyatlarini ochmoqda. Shuning uchun ham “Sokin so‘z suvrati” to‘plami xos o‘quvchilar, xususan, yosh shoirlar ishtiyogini qo‘zg‘ashga ishonmoq joiz”(“Nozik ifodalar”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2016-yil 17-iyun).

Shoirning o‘zi ham go‘yo o‘z she’rlarini nazarda tutgandek yozadi: “Ehtimol, bu tur she’rlar kishida alahsirayotgan, tush ko‘rayotgan kimsaning uzuq-yuluq, mantiqiy bog‘i bo‘lmagan so‘zlaridek taassurot qoldirar. Chunonchi, bunday she’rlar bizning tasavvurimizdagi va tushunchamizdagi ijod namunalari bo‘lmasligi, ularni qabul qilishga qiynalishimiz mumkin. Biroq inkor etishga haqqimiz yo‘q. Zero, ular inson deb atalmish xilqatning tuyg‘u-yu tushunchalarini qay bir jihatdan tahlil-u tadqiq etish yo‘lidagi kashfiyotlardir”(“Turk postmodern she’riyati”, “Jahon adabiyoti” jurnali, 2004-yil noyabr). Oriy rost. Sh.Subhonning ko‘pgina bitiklari chindan almoyi-aljoyi ko‘rilgan tushdan qolgan uzuq-yuluq xotiralar kabi o‘quvchi ongini zo‘riqtiradi, hatto uning g‘ashini keltirishi mumkin, biroq bular ham insonga xos reallikning, to‘g‘rirog‘i, irreallikning bir parchasi sifatida yashashga haqlidir. Faqat bir shart bilan – ular yuksak badiiylk talablariga javob bersin!

Shoir she’rlaridan o‘qishda davom etamiz. Darvoqe, bu she’rda T.Ali mulohazalariga “achchiqma-achchiq” katta harflar ham bor va ular zimmasiga zalvorli ma’no yuklangan):

O‘YLAdim

IZLAdim

TOPdim sizni nihoyat

Buni sevgi haqidagi she’r, deyish mumkin. El orasida “O‘yla, izla, top” degan undalma aytim yuradi. Shoir xuddi shu aytimdan she’r yasab, o‘ziga xos folklorizmni hosil qilgan. Shuningdek, el aytimida aks etgan ijtimoiy mavzuni ishqiy mavzuga aylantirib yuborgan. Folklor namunalarini stilizatsiya qilish boshqa she’rda(“biri ikki bo‘lmaydi” degan aytim vositasida) davom etadi:

unutma yodingda tut

birimiz ikki bo‘lmas

ikkimiz bir bo‘lmasak

Yoki “menga senga yo‘l bo‘lsin” deyilgan g‘alati so‘z o‘yinli she’ri zimnida ham aslida xalq og‘zida yuradigan “senga(menga, unga...) yo‘l bo‘lsin” degan aytim yotadi. Shoirning moderncha sunumlari, novatorligi o‘zini shu yanglig‘ namoyon etgan, etadi.

Yurt va xorijdagi e’tiroflar. Chet ellarda she’rlariga so‘zboshilar yozilib, so‘ng ular kitob holida chop etilib, uchrashuv uchun taklif qilingan shoir, yozuvchi, umuman, ijodkor O‘zbekistonda uncha ko‘p emas. Shermurod Subhon ana shunday quvonchga noil bo‘lgan shoirlarimizdan. U 2025-yili shoir sifatida Turkiyaga taklif etildi. U yerda shoirning “Sassizlikning sasi” nomli nazmiy to‘plami bosmadan chiqdi. Shu kitob doirasida shoir bilan turk o‘quvchilari, muxlislari o‘rtasida talay uchrashuvlar o‘tkazildi. To‘plamga so‘zboshi yozgan Jo‘shqin Qorabulutdan eshitamiz: “she’rlari ham qisqa, lo‘nda, sarbast tarzda bo‘lgani uchun O‘zbekistondagi zamonaviy she’riyatning va-killaridan biri sifatida e’tirof etiladi”.

Shuningdek, Sh.Subhon ijodi U.Normatov, R.Parfi, Q.Yo‘ldoshev, T.Ali, B.Ro‘zimuhammad, N.Abdulhakim, V.Fayzulloh kabi o‘zbek, Jo‘shqin Qorabulut, Zigrid Klaynmixel kabi turk, olmon olimlari-yu ijodkorlari tomonidan munosib baholangan.

Xususan, ustoz adabiyotshunos, prof. U.Normatov ham Sh.Subhon izlanishlariga 2005-yildayoq ahamiyat qaratib, uning she’riy yo‘nalishini to‘g‘ri ilg‘aydi: “Shermurod Subhonning “sen ketding she’r keldi xayr alvido!”... yoki “menga senga yo‘l bo‘lsin!” uch, ikki, hatto bir satrlk so‘z o‘yinlari asosiga qurilgan she’rlarida lirik qahramonning dardi-hasrati, armoni mujassam”.

Olmon olimasi Zigrid Klaynmixel “90-yildan keyingi o‘zbek she’riyatidagi muhit” maqolasida shunday yozadi: “Modern shoir, “O‘zbek modern she’riyati” to‘plami noshirlaridan biri Shermurod Subhon kichik kinoyalarni taqdim etishni ma’qul ko‘radi. Quyida uning she’rlaridan biri bilan tanishamiz:

tun

kezaman yolg‘iz

boshim uzra ko‘k

elar qorini.

na bir sharpa tasalli

na bir shitir taskindir

ko‘z tekkanga o‘xshaydi

oyga bu kecha

tun – qizg‘anchiq malak

quyoshni yerga ko‘mib

yashirding ayt

ul oyni qayon...

Oy – an’anaviy she’riyatda ma’shuqa timsoli. Umuman olganda, osmon jismlariga ishora qilish bor narsa. Shermurod Subhon she’rida ma’shuqa va oy taqqoslangan. Har ikkala ma’nosida ham oy timsolida dunyo yashiringan. Qorong‘ulik mukammallik belgisidir”.

Ko‘rinadiki, shoir she’rlari yurtimizda va uning tashqarisida qiziqish uyg‘otmoqda, tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Sh.Subhon – tadqiqotchi. Shoir, ayni damda, avangard adabiyot tadqiqotchisidir. U Toshkent davlat universitetidan so‘ng tahsilni Istanbul universiteti adabiyot fakultetida davom ettirib, u yerda “Cahit Zarifoğlu Hayati Ve Şiirleri” mavzusida turk tilida magistrlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinroq “Turk postmodern she’riyati” nomli salmoqli maqola yozdi. U haqda professor Q.Yo‘ldoshev: “*Unda muallifning o‘tgan asrning so‘nggi choragidan buyon turk she’riyatida yuz bergan sifat o‘zgarishlarining ildizlari borasidagi xulosalari ifodasini topgan*” deb yozadi. Bir so‘z bilan aytganda, “She’riyat iqlimi” kitobida Sh.Subhon shakllangan adabiy tanqidchi sifatida bo‘y ko‘rsatgan.

(Davomi 16-betda.)



Gurung

OLIMNING DARDI, OLAMNING DARDI

Eng foydali inson jamiyatga, vatanga, millatga foydasi tekkan insondir. O'z ilmi, yozgan asarlari, ibratli hayoti bilan yurtdoshlarimizga o'rnak bo'lib yashayotgan zamondoshlarimiz ko'p. Biz ularni ilm ahli deb ataymiz. Shunday ma'rifatli, daryoqalb yetuk olimalarimizdan biri Dilorom Yormatovadir.



Bugun birgina savol bahonasida, opaning ko'ngil torlarini chertishga qaror qildim.

– *Dilorom opa, bundan ko'p yillar oldingi suhbatlarimizda nafaqat kasbingizga doir fikr va tushunchalaringiz, balki hayotiy falsafalaringiz bilan ham o'rtoqlashgandigiz. Bugun ham bir olim va ijodkor sifatida xalq uchun qayg'urmoqdasiz, yurtimizda aholi soni oshayotgani bois, ularni sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasida bosh qotirayotganingiz haqida kuyunib gapirayapsiz. Ammo... Ayting-chi, odamzodni faqatgina osh-ovqat bilan to'ydirib bo'larmikan?*

– Albatta, yo'q. Insonlar ma'naviy och ekan, ularni hech narsa bilan to'ydirib bo'lmaydi. Eng avvalo yurtdoshlarimizning ma'naviy dunyosini boyitishimiz, ularni kitob o'qishga o'rgatishimiz kerak. Kitob o'qimagan insonni hech qachon to'ydirib bo'lmaydi. Tarixda ne-ne hukmdorlar katta-katta mamlakatlarni bosib oldi. Dunyoning yarmini egallagan shohlar, sarkardalar,

tarixiy shaxslar bor. Lekin ular bunga qanoat qilmay davomli boylik to'plashda davom etdi, eng achinarlisi qanchadan-qancha qimmatli kitoblarni yoqib yubordi. Ularni na tarix, na insoniyat kechiradi.

Bilasizmi, Alisher Navoiy haj safariga bormagan. Aniqrog'i, mamlakat tinchligi va osoyishtaligi yo'lida muborak safarga boshlashga munosib vaqt topolmagan. Buyuk mutafakkir "uyida osoyishtalikni saqlay olmagani odamga haj joiz emas", deb hisoblagan. Navoiy nazdida uning uyi – butun Xuroson va Movarounnahr edi. Ko'ngli faqat Oллоh zikrida bo'lgan ulug' shoir nazdida notinch yurtini obod qilish, el ko'nglini tinchlantirish ibodatdan avvalroq va afzalroq bo'lgan.

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning
xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa,
obod aylagay...*

Haqiqat shulki, Navoiy ma'naviy boy,

ko'ngli to'q odam edi. U hayoti davomida juda ko'plab savobli ishlar qildi, machitlar, ko'priklar, hammomlar qurdirdi, buzilgan yo'llarni sozlab berdi. Shunday xayrli ishlari bilan o'z ma'naviy dunyosini qoniqtirdi. Qachonki, insonlar ma'naviy dunyosini nafsi-dan ustun qo'ysagina, bu dunyoning rohatini anglab yetishi mumkin. Bo'lmasa, insonlar o'z tinchi, rohat-farog'ati, hashamatli hayotini o'ylab, tabiatga zarar berishda davom etadi.

Bugun eng noyob hayvonlar, eng chiroyli daraxtlar, gullar va o'simliklar insonlarning uyini bezash, saroylarini chiroyli qilish uchun nobud qilinmoqda. Taassufki, birgina kiyik go'shtini totib ko'rish uchun eng so'nggi kiyikni o'ldirishga tayyor bo'lgan insonlar bor oramizda. Unday insonlarga qarata kiyikni otmasdan, bu go'zal jonivorning ko'zlariga boqing, degan bo'lardim. Buxoroga borganimda atayin tirik kiyikni ushlab ko'rdim. Ko'zlariga boqdim. Shunda shoir, yozuvchilar tasvirlagan haqiqiy go'zallikni ko'rdim.

Ba'zi shafqatsiz insonlar o'z nafsi, shohona hayotini o'ylab, turmushini nihoyatda dabdabali ko'rsatish uchun tabiatga ozor beradi. Biz shunday darajaga yetib keldikki, ko'plab hayvon va o'simliklarni qirib, ularni "Qizil kitob"ga kiritib qo'ydik. "Qizil kitob" har o'n yilda bir chiqadi, lekin kamayib yoki butunlay yo'qolib borayotgan hayvon va o'simliklar soni yildan yilga oshib boryapti. Buyuk daholar ilmi yetuk insonlar bo'lgan. Sababi, ularning onalari ziyoli bo'lishgan. Qachonki onalar bilimli bo'lsagina o'z farzandiga munosib tarbiya bera oladi. O'zi tarbiyaga muhtoj bo'lgan ona farzandiga nimani ham o'rgatishi mumkin?..

Shunday johil ayollar borki, o'rmaslab ketayotgan qurtini ko'rsa, bolasiga o'ldirishni buyuradi. Qushni tosh bilan urib, uchirib yuborishga undaydi. Bunday onalar qo'lida ulg'aygan bolalardan kelajakda nimani kushish mumkin? Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda mushuk yoki kuchuklarni qiynab, ularga o't qo'yib qiynayotgan ba'zi yoshlarni



ko'rganimda johil onalardan johil farzandlar meros qolishini o'ylab, afsuslanaman.

Farzand tarbiyasida, jamiyatning rivojlanishida ziyoli onalarning o'rni katta. Jamiyat yaxshi, oqil va mehribon insonlar bilan rivojlanadi. Qaysiki jamiyatda ongli, aqlan yetuk shaxslar ko'p bo'lsa, o'sha jamiyat oldinga qarab ketadi. Ilm va hunarga yuksak baho berilgan jamiyat oldingi saflarda bo'ladi. Saroy kabi uylarda yashashdan boshqa orzusi bo'lmagan odamlarning ko'payib borishi meni ko'p qiynaydi.

"Och odamning ko'zini tuproq to'ydiradi" deb xalqimiz bekorga aytmagan. Chun-ki tarixda o'tgan zolim xonlar, qonxo'r podshohlar boylikka to'ymagan-da. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarini o'qisangiz, Aleksandr Makedonskiyning onasiga qilgan vasiyati berilgan. U onasiga shunday vasiyat qiladi: "Ona, men o'lganimda tobutdan o'ng qo'limni chiqarib qo'ying. Garchi yer usti va suv osti boyliklarining yarmiga egalik qilgan bo'lsam-da, eng so'nggi manzilingma bo'sh qo'l bilan ketyapman. Bu insonlarga ibrat bo'lsin!"

Bu fikrlar aslida Makedonskiyning emas, Navoiy hazratlarining fikridir. Jamiyatga foydali fikr va tushunchalarini qahramonlar tilidan berib, umrboqiy asarlar yozib qoldirgan. Ochko'zlik, to'ymaslik, hirs, dabdabali hayotni orzu qiluvchi insonlar yo'q bo'lmas ekan, hayvonlar va o'simliklar dunyosi yo'qolib boraveradi. Qaniydi, xalqimiz Navoiy asarlarini to'yib-to'yib o'qisa, millatimiz onalari televizorda beriladigan mazmunsiz, sayoz seriallarni ko'rish o'rniga, farzandlari bilan birga dars qilishsa, ularga o'rnak bo'lishsa, dunyoda bizdan kuchli millat ham, jamiyat ham bo'lmasdi.

Chindan ham, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor, bir necha Xalqaro akademiyalarning akademigi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, zaytunshunos olim, jonsarak ayol Dilorom Yormatovanning kuyunganicha bor. Zero, nafaqat farzandlarning kelajagi, balki butun bir millatning taqdiri ayollarga, onalarga bog'liqdir. Ayol kishi ilmsiz va johil bo'lsa, farzandlarning kelajagi ham xavf ostida qoladi. Shunday ekan, xonadonlarda voyaga yetayotgan munis qizlarimizni ilmi, ma'rifatli, ziyoli qilib voyaga yetkazishga harakat qilaylikki, ular orasidan millatimiz, davlatimiz, jamiyatimizning buguni va ertasi haqida qayg'uradigan jonkuyar olimalar ko'plab yetishib chiqsin. Axir, bizning o'tmishimizda To'maris, Barchinoy, Nodirabegim, Uvaysiy kabi qanchadan-qancha ziyoli momolarimiz bo'lgan. Biz ular bilan faxrlanibgina qolmay, ana shunday qizlarni tarbiya qilaylik.

Nazira BOYMURODOVA,
jurnalist, fotorassom
O'zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy
ijodkorlar uyushmasi a'zosi

Ta'kid

“AYOL, TARIX, TAMADDUN”

Ilmli ayol nafaqat o'z hayoti, balki oilasi, farzandlari, hatto jamiyatni nurafshon qiladigan buyuk kuch egasi. Ayol insoniyat tarixi davomida mehr-muruvvat, sabr-toqat, go'zallik va donolik timsoli bo'lib kelgan. Ilmli ayol esa bu fazilatlarini yanada yuksak darajaga ko'taradi. U hayotning har bir jabhasida ongli qaror qabul qiladi va boshqalarga ibrat bo'la oladi. Ilmli ayol jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, yoshlarni ma'naviy jihatdan sog'lom voyaga yetkazishda beqiyos rol o'ynaydi.

Ayol ilm orqali o'z hayotini mustaqil boshqarishni o'rganadi, o'z oilasini to'g'ri yo'lga soladi, farzandlariga to'g'ri tarbiya beradi va jamiyatning yuksalishiga hissa qo'shadi.

Islom dinida ham ayollarning ilm olishi targ'ib qilinadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdur", deganlar. Bu hadisning o'ziyoq ilmning jinsga bog'liq emasligi, ayollar uchun ham ilm olishning naqadar zarurligini ko'rsatadi. Robiya al-Adaviya, Oyisha (r.a.), Nodira, Uvaysiy, Zebunniso singari ilmli ayollar o'z davrida nafaqat adabiyot va tafakkurda, balki jamiyat hayotida ham o'z izlarini qoldirganlar.

O'zbekistonda ham ayollarning ta'lim va ilm-fan sohasidagi faolligi yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda respublika oliy o'quv yurtlarida talabalarining qariyb yarmi xotin-qizlar. Shuningdek, ilmiy daraja egasi bo'lgan, fan doktori va professor maqomiga erishgan ayollar soni sezilarli darajada ko'paymoqda.

Davlat miqyosida "Qizlar akademiyasi", "Xotin-qizlar daf-tari", "Ayollarni qo'llab-quvvatlash markazlari" kabi dasturlar faoliyat yuritmoqda. Bu tashabbuslar ayollarning ilmiy izlanishlari, innovatsion g'oyalari va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

UNESCO hisobotlariga ko'ra, dunyoda ilm-fan bilan shug'ullanayotgan ayollar ulushi 30 foizdan ortgan. O'zbekistonda ham bu ko'rsatkich so'nggi yillarda yanada o'sib, ilmiy jamoalarda

ayollar rahbarlik lavozimlariga faol tayinlanmoqda. Bu holat, shubhasiz, ilmiy muhitning gender tenglik tamoyillari asosida shakllanayotganidan dalolat beradi.

BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – UNESCOning 43-sessiyasi insoniyat taraqqiyotining eng muhim masalalaridan biri – **gender tengligiga** bag'ishlandi. Sessiya doirasida "Ayol, tarix, tamaddun" nomli kitob-albom taqdimoti o'tkazilgan nafaqat tarixiy voqea, balki ayolning jamiyatdagi o'rni va rolining yuksak e'tirofi bo'ldi. Unda turli davrlarda yashab o'tgan buyuk ayollar – sarkarda, shoira, mutafakkir, olim va bunyodkorlarning ibratli hayoti yoritilgan. Bu nashr orqali ayollarning sivilizatsiya taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi yana bir bor e'tirof etildi. Tarix guvohki, insoniyatning deyarli barcha yutuqlari, taraqqiyot bosqichlarida ayollar faol ishtirok etgan. O'rta Osiyoda To'maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zebunniso kabi tarixiy shaxslar o'z davrida nafaqat siyosiy, balki ma'naviy hayotda ham yetakchi bo'lishgan. Ularning faoliyati bugungi kunda ham ayollarning salohiyati, jasorati va aql-idrokining timsoli sifatida qadrlanadi. Bugungi globalashuv davrida ham siyosat, ta'lim, fan, texnologiya, madaniyat va iqtisod sohalarida ayollar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. UNESCOning gender tenglik siyosati aynan shunday faol, yetakchi ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ayol nafaqat oilaning, balki jamiyat va davlatning barqarorligi, tinchligi hamda ma'naviy taraqqiyotining poydevoridir. Ayol – hayot manbayi, ma'naviyat timsoli, jamiyatning madaniy o'lchovidir. Shunday ekan, har bir davrda ayollarning mehnati, jasorati va fidoyiligi qadrlanishi lozim. Zero, **ayolni ulug'lash – insoniyatni ulug'lashdir.**

Ma'suma MO'MINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Yaxshilar yodi

SHOGIRDLARNING TOG'I EDI MAHMUD SA'DIY...



Turkiyadan kelganimdan beri asosiy maqsadim marhum ustozlarimning qabrini ziyorat qilib, ular bilan g'oyibona suhbatlashish edi. Ammo... ustozlarni nafaqat tirikligida, balki vafotlaridan keyin ziyorat qilish uchun ham ruhan tayyor bo'lmoq kerak ekan. Bu tayyorgarlik menda naq besh oy surdi. Ilk ziyoratimni esa qadrlil va mehribon ustozim Mahmud Sa'diy yotgan "Ilon ota" qabristonidan boshlashga qaror qildim.

BIR BOR EKAN, BIR YO'Q EKAN...

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Yaqin o'tgan zamonda O'zbekiston atalmish go'zal bir mamlakatda Mahmud Sa'diy ismli donishmand bir inson yashab o'tgan ekan. U hammadan ham ko'proq kitoblarni yaxshi ko'rarkan. O'quvchilik paytlaridanoq sanoqsiz kitoblarni o'qib chiqqani uchun uning fikrlari, dunyoqarashi – tug'ilib o'sgan qishlog'idan oshib, avval Narpay tumani, keyin esa Samarqand viloyatiga ham sig'may qolibdi. Shundan so'ng kitobsevar yosh o'g'lon ilm olish, tafakkurini yanada boyitib, ona Vataniga foydali inson bo'lish maqsadida shahri azim Toshkentga yo'l olibdi.

Toshkentga kelar-kelmas ilmga bo'lgan chanqoqligi bilan ustozlar nazariga tushib, O'zbekistonning otaxon universitetlaridan bo'lgan Milliy universitetning Filologiya fakulteti jurnalistika bo'limiga o'qishga qabul qilinibdi. Ana shundan keyin yosh Mahmud bu sohaga qattiq mehr qo'yib, astoydil o'qib, to'g'ri-so'z va qo'rqmas jurnalist bo'lishga qaror qilibdi. Intilganga tole yor, deganlaridek, ustozlar ham bu tinib-tinchimas, kitob o'qishdan charchamaydigan talabani g'ayratiga qarab, o'z bilimlarini ayamadan o'rgatishibdi.

Oradan yillar o'tib, o'qishni a'lo baholarga tamomlagan yosh Mahmud olgan bilimlarini hayotda qo'llash uchun matbuot olamiga qadam bosibdi. U garchi endi talaba bo'lmasa ham, o'qishdan, o'rganishdan, bilimlarni so'rashdan chekinmabdi.

Mahmud Sa'diy o'z ilmini tinmasdan oshirib, mashaqqatli va mas'uliyatli kasb egasi – yetuk jurnalist bo'lish uchun qattiq mehnat qilishda davom etibdi. Qaysi mavzudan so'z ochilsa, bemalol bahslashalar, o'zining mantiqiy fikrlari bilan atrofdagilarni lol qilib qo'yarkan.

Uzunquloq gaplarga qaraganda, uning uyida kitob shunchalik ko'p ekanki, oyoq bosishga yer yo'q ekan. Uylanganida ham shu sababli yosh kelinchakning sarpolarini noiloj oshxonaga joylashtirishibdi...

DARAXT EKKAN – MEVASINI TERAR

Yillar davomida qilingan samarali mehnat, uyqusiz tunlar oddiy Mahmudni ustoz darajasiga olib chiqibdi. U endi nafaqat boshqa yozuvchilar, shoirlar, olimlarning kitoblarini o'qir, balki o'zi ham kitob yoza oladigan darajaga kelibdi. Uning nomi tajribali jurnalist, mohir muharrir, yetuk munaqqid va tarjimon sifatida butun mamlakatga tanilibdi. Hatto olimlar ham uning yoniga kelib, ba'zi masalalarda maslahat so'raydigan bo'libdi. Ammo kamtar ustoz hech qachon kibriga berilmabdi. Qishloqdan chiqqanda qanday sodda va to'g'ri-so'z bo'lsa, shundayligicha qolibdi.

Uning "Teran tomirlar" nomli kitobi bosmaxonadan chiqishi bilan mashhur bo'lib, qo'lma-qo'l o'qilibdi. Ustozning o'z vatani, ayniqsa, yoshlar kelajagi uchun qayg'urib qilayotgan ezgu ishlari va mehnatlarini ko'rgan O'zbekiston davlati uni munosib taqdirlash-

ga qaror qilibdi. Ustozni yillar davomida "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil" esdalik nishoni, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" hamda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlashibdi. Buni ko'rgan ustozning do'stlari va shogirdlari chinakamiga xursand bo'lishibdi. Chunki ustoz bunday mukofotlarning ko'piga arzir ekan.

Mahmud Sa'diy boshqalardan ajratib turadigan ikki asosiy xislati bo'lib, ulardan biri to'g'ri-so'zligi bo'lsa, ikkinchisi o'ta halolligi ekan. Hatto bu borada uning oldiga tushadigani yo'q ekan. Shu xislatlari bilan umrining kuch-g'ayratga to'lgan yoshlik damlarini mamlakatda mashhur bo'lgan gazeta va jurnallarda faoliyat olib borishga bag'ishlabdi. Jumladan, "Sharq yulduzi" jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, "Guliston" jurnalida katta adabiy xodim, bo'lim mudiri, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bo'lim mudiri, "Ma'rifat" gazetasida maxsus muxbir, sharhlovchi, bo'lim muharriri vazifalarida ishlabdi. Umrining so'nggi yillarida esa O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Xalqaro jurnalistika fakultetida yosh jurnalistlarga tahrir san'atidan saboq berib, shu nomda o'quv dasturi yaratishga ham ulguribdi.

Xalqaro jurnalistika fakultetida ko'plab talabalar tahsil olsa-da, ularning hammasi ham bu kasbning mashaqqatlarini bo'yniga olib, bu dargohga qadam qo'ymagan ekan. Talabalar orasida diplom olish, tezroq televideniye qilib tanilish uchungina bu sohani tanlaganlar ham topilarkan. Ammo ularning orasida bir talaba qiz bor ekanki, jurnalistika kasbining bor mashaqqatini chekishga tayyor ekan. U Mahmud Sa'diyning etagini mahkam tutib, u bilan "Ma'rifat" gazetasining Adabiyot va san'at bo'limida birga ishlash baxtiga muyassar bo'libdi. Yillar davomida ustozdan kasb sirlarini, tahrir san'atini o'rganibdi. "Ma'rifat"da sahifa-sahifa maqolalari chiqibdi.

AYRILIQ AZOBI

Qizginaning ko'nglida katta bir armon qolibdi. U uzoq bir mamlakatga ijodiy safarga ketganida ustozi olamdan o'tibdi. O'sha payti butun dunyoni "Kovid" nomli shafqatsiz bir kasallik chulg'ab olgani uchun qizgina vidolashishga kela olmabdi. Shu sabab u bepoyon dengizga borib, to'ygunicha yig'lab, "ustozimni jannatlaringdan biriga olgin", deya Ollohga yolvoribdi, duolar o'qibdi. Bu duolarni eshitgan bulutlar yum-yum yig'labdi, hatto dengiz ham uning azasiga sherik bo'lgandek chayqalibdi, chayqalibdi...

"Otasiz yetim – yarim yetim, onasiz yetim – chin yetim". Ustozsiz yetim... Uning naqadar og'irligini qizgina juda yaxshi anglagan ekan. U yig'lay-yig'lay shu satrlarni bitibdi:



*Shogirdlarning tog'i edi Mahmud Sa'diy,
"Ma'rifat"ning bog'i edi Mahmud Sa'diy.
Bu dunyoda kitoblar va shogirdlarga
Doim joni fido edi Mahmud Sa'diy.*

*Aytganiga o'zi amal qilar edi,
Lafzsizlikni xiyonat deb bilar edi.
Xushlamasdi ko'p gapirish, ezmlikni,
Bir gapirsa, hamma jimib qolar edi.*

*Olim degan unvoni yo'q, ammo olim,
Ham donishmand, zakiyligi elga ma'lum.
Bor boyligi – kitoblari, fikrlari,
Dunyolarga tarqab ketgan shogirdlari.*

*Mahmud Sa'diy ana shunday odam edi,
Odam emas, aslida bir olam edi.
Koinotni sig'dirgandi manglayiga,
Kitob bilan bosishgandir tanglayiga.*

*Kecha bor-u, bugun yo'qdir oramizda,
Ba'zan qo'msab, tentiraymiz xonamizda.
Yetim qolgan qo'zilaray javdiraymiz,
To'rt tomondan Sa'diylarni qidiraymiz.*

*Ustozingdan ayrilmoqlik yomon ekan,
Undan ko'ra jon bermoqlik oson ekan.
"Olim o'lsa, olam o'lar", derlar edi,
Ustozlarsiz qolgan dunyo yolg'on ekan.*

QISSADAN HISSA

Mahmud Sa'diy ham barcha insonlar kabi oshini oshab, yoshini yashab bu dunyoni tark aylabdi. Uning kitoblari qanchalik ko'p bo'lsa, shogirdlari ham shunchalik ko'p ekan. Aytishlariga qaraganda, Ustoz ezgu ishlari, ezgu amallari orqali shogirdlarining qalbiga ekib ketgan to'g'rilik va halollik daraxtlari bugun meva berayotganmish. Kimki bu mevalardan bahramand bo'lsa, uning ham qalbi ezgulik qilish umidida lov-lov yonarmish.

Siz ham bu meবাদan totib ko'rdingizmi? Ulgurmadan bo'lsangiz, shoshiling, keyin afsus qilib yurmang. Aytgancha, ustozning shogirdlari va farzandlariga qoldirgan eng katta merosi – KITOBlardir.

Qissadan hissa shulki, inson umri bir borlik va bir yo'qlikdan iborat ekan. Undan kelajak avlodga meros qoladigan eng katta boylik esa ezgu amallari ekan.

Nazira BOYMURODOVA,
jurnalist



Yaxshilar yodi

Urush ko'rgan muallim

Odatdagi kunlarning birida ayolim qo'limga qalingina daftar tutqazib dedi:

– Sofiya muallim berib yuboribdi, otasi Normamat domla haqida yozgan ekan...

“Ha, Normamat Eshmurodov fidoyi muallim, yaxshi odam edi”, degan o'y bilan daftarini varaqlab, o'qishga tushdim.

“Kecha otam tushimga kirdi, hech bunday bo'lmasdi, doimgidek orasta kiyinib maktabga borayotganmish...”

Otamning aytishicha, Buxoro amiri yurtini tashlab Afg'on-ga qochgan payti, ya'ni o'tgan asrning yigirmanchi yilida tug'ilgan ekan. Otamning bolaligi qahatchilik, yo'qchilikda o'tgan bo'lsa-da, Eshmurod bobom va Unnash momomlarning sa'y-harakatlari bilan o'n ikki yoshida Nagahon qishlog'ida Hojixon eshon boboning xonadonida yashab, eski-savod chiqargan. So'ngra Do'ngsanchiqul qishlog'ida ochilgan maktabda tahsil olgan. Ayni qirchillama yigit yoshida mash'um urush boshlanib, otam ham tengqurlari qatori frontga yo'l olgan. Dushman bilan kechgan og'ir janglarning birida bomba portlashi tufayli tuproq tagida ko'milib qolgan. Qurol-dosh do'stlari uni bazo'r kavlab olishganda chap yelkasini snaryad yulib ketgan, og'zidagi sakkiz tishi singandi.

Yaralangan otam harbiy gospitalga yetolmay, qishloq chekkasidagi yerto'ladan panoh topgan. Keksa ayol va uning nabirasi otamning yarasini bog'lab yegulik bergan. Ertasiga esa dushman askarlari

kelib otamni asir olib ketgan. Keyin uning azob-uqubatlarga to'la qora kunlari boshlangan. Tutqunlikda o'tkazgan kunlari haqida so'zlashni yoqtirmas, gap mavzusi kelgan payti esa: “Ey, qo'yinglar, yodimga sol-manglar, shundoq ham har kecha tushimga kirib azob bera-di”, derdi.

Otamning Yortepa qishlog'idan bo'lgan Tursoat bobo bilan ayrilmas do'stlik rishtasi o'sha mahzun kunlarda bog'langan ekan. Otam asirlikda bo'lgan kunlarining birida tush ko'ribdi, tushida uzun ilonga minib yurganmish. Uni qishloqdoshi usta Jabborning otasi Qurbon bobo kutib olibdi. U ko'rgan tushining ta'birini Tursoat bobodan so'rabdi. Bobo esa otamga tez orada ozodlikka chiqib, eliga poyezdda borishi, uni Qurbon bobo kutib olishini aytibdi. Qarang, ko'p o'tmay qo'shinlarimiz asirlarini ozod qilib, otam ham poyezdda yurtga qaytibdi. Eng ajablanarlisi, otamni qishloqqa kiraverishda o'sha Qurbon bobo kutib olibdi.

Tursoat boboning Bekmurod Tursoatov degan shoir nabirasi bor edi. Otam har gal poytaxtga borsa, Bekmurod kutib olardi. Hayotdan erta ko'z yumgan, ijodkor yigit, o'sha yillari “Assalom, O'zbekiston” teledasturining muharriri bo'lib ishlardi...

Do'st-birolarlari oqibatli ekan, uning she'rlarini kitob qilib chop etishdi. Opasi Saodatning qo'lida ko'rib, ko'zlarim yoshga to'ldi. Ha, bu foniy dunyoda barchamiz mehmonimiz, bizdan esa farzandlarimizga ezgu ishlarimiz, yaxshi nomimiz qoladi. Garchi otalarimiz bu yorug'

olamdan o'tib ketishgan bo'lsa-da, ularning an'alarini davom ettirayapmiz. To'y-ma'rakalarda bir-birimizni yo'qlab turamiz. Men va ukam Do'stmamat, marhuma singlim Salima otamizning kasbini davom ettirib o'qituvchi bo'lib ishladi. Otamning urushda ko'rgan ko'rgiliklarini jurnalist va muallim Abdivoy Rahim o'zining “O'q yomg'iri ostida” ocherklar kitobida batafsil bayon qilgan.

Qirq oltinchi yilning yozida otam ona qishlog'iga qaytib, otasining “Bolam, ilm o'rgan, ilmli kishi aslo xor-zor bo'lmaydi”, degan naqliga amal qilib, Qarshi muallimlar tayyorlash bilim yurtiga o'qishga kiradi. Tahsilni tugatib, maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlagan, uylanib, birin-kekin farzandlari dunyoga kelgan.

– Normamat Eshmurodov boshlang'ich sinfda o'qitgan, – deya xotirlaydi ijodkor muallim Abdivoy Rahim. – A'lochi o'quvchi edim. Shu sabab, o'qituvchim ba'zan yozma ishlarni tekshirishga ko'maklashgani uyiga olib ketardi. O'shanda domlanning endigina uylangan kezlari chog'i, chimildiq bor ekan. Xuddi kattalardek “Domla qush qulluq bo'lsin!”, deb bexosdan aytib yuboribman. O'qituvchim menga ajablanib qaradi va bir zum jim qolib, so'ngra jilmayib qo'ydi. Domla alloma shoir Abdulla qori Gulshaniyning “Alvido” g'azallar to'plamini nashrga tayyorlashga ko'p yordam bergandi. U kishi uzoq yillar maktabda direktor, direktor o'rinbosari bo'lib ishladi. Domlanning tahriri bilan chiqadigan “Qalampir”, “Maktab ovozi”

devoriy gazetalarda o'zi yozgan satirik she'rlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otardi.

– Normamat muallim o'ttiz besh yoshida Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga sirdan o'qishga kimgandi, – deya so'zlaydi shogirdi, muallim Lapas Aliqulov. – Men ham talaba edim. Kunlarning birida auditoriyadan qulog'imga tanish ovoz eshitildi. Eshikni ochib qaragam, Normamat domla talabalarga eski o'zbek yozuvidan dars o'tayotgan ekan. “O'zi talaba bo'lsa-yu, qanday dars o'tar ekan?” deb hayron bo'lgandim. Keyin esa domlanning arab alifbosini bilishini eshitdim.

– Otam irodali inson edi. Bilasiz, o'tgan asrning 50-yillarida ham sho'ro zamonasining qama-qamallari to'xtamagandi, – deya so'zlaydi Normamat muallimning o'g'li Do'stmamat Eshmurodov. – Ayniqsa, otam kabi urushda asirlikda bo'lganlarga ishonchsizlik ko'zi bilan qaralar, qattiq nazorat qilinardi. Ta'qib va tazyiqlardan qochgan otam bir necha yil Chiroqchining olis dashtidagi Sho'rquduq qishlog'ida muallimlik qilgan. Qirq kilometr olisdagi qishlog'iga velosiped bilan hafta-o'n kunda kelib ketgan.

Otam oilaparvar, tabiatan og'ir-vazmin edi. Onam Momo-xol momo bilan sakkiz farzandni tarbiya qilishdi. Uyimizda hech birimizga qattiq gapirmas, biror nojo'ya ish qilsak ham o'zimizni alohida chaqirib tanbeh be-



rardi. U ayniqsa, yolg'on so'zlaganni kechirmasdi. Bolalari, qarindosh-urug'ini deb o'zini o'tga-cho'qqa urardi, hammani ilmli bo'lishga undardi. Sayohat qilish, yurt kezishni yoqtirardi. Qayerga borsa, eng avvalo kitob do'koniga kirar, kitob sotib olardi. Ayniqsa, Navoiy, Bedil, Mashrab, Ogahiy she'riyatining shaydosi edi. Abdulla Qahhor va Mirzakalon Ismoilii asarlarini qayta-qayta o'qirdi.

Otamdan Eshmurod bobom bir bolali sigir puliga o'g'liga olib bergan Qur'on kitobi yodgorlik bo'lib qoldi. Har gal muqaddas kitobni varaqlasam, tepamda otam jilmayib qarab turgandek tuyulaveradi.

Otam adabiyot muallimi bo'lsa-da, negadir opam Sofiya kimyo, men matematika o'qituvchisi bo'ldik, ukam Shermamat quruvchi-muhandislikni tanladi. Ammo oqqan daryo oqar ekan. Nabiramiz Lola hozir bobosining izidan borib, o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'ldi. U bugun maktabda dars berish bilan birga, yaxshigina she'r va hikoyalar ham yozadi”.

Sofiya muallimning bitiklarini maroq bilan o'qib, tartibga soldim. Ha, ustoz, jonkuyar inson Eshmurod bobo o'g'li Normamat domladan o'chmas xotira, yorqin iz qoldi.

O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

San'at fidoyilari

Musiqasiz ruh – bo'm-bo'sh



1936-yili Oliy musiqa maktabi negizida tashkil etilgan O'zbekiston davlat konservatoriyasining yuzlab bitiruvchilari yillar davomida musiqa ixlosmandlariga sara ijod namunalari taqdim etib kelishgan.

Muassasada hozir ham ustoz san'atkorlar tahsil berib kelmoqda. O'z tajribasi va bilimlarini yoshlar bilan baham ko'rishni yoqtiradigan professor, “Xalq cholg'ularida ijodiyot” kafedrasini mudiri Bahodir Mirpayozovning ham pedagogik va tashkiliy ishlardagi o'rni beqiyos. Uning “qanchalik ko'p mehnat qilsangiz, shuncha ko'p narsaga erishasiz” degan gapini shogirdlari uchun shiorga aylangan.

“Nima uchun milliy musiqani tanladingiz? Ustozlaringiz va sinfdoshlaringiz kimlar edi? degan savolimizga Bahodir samimiylik va iliqlik bilan javob berdi:

– Bolaligimdan musiqaga qiziqaman. Televizorda konsertlar tomosha qilarkanman, musiqa asbobini chalishni orzu qilardim. Sakkiz yoshimdan bolalar mu-

siqa va san'at maktabida o'qidim. O'tkir Hoshimov – qo'limga ilk rubob tutgan o'qituvchim. Keyinchalik Vasil Voisov va Ahmadjon Xoliqovdan musiqa sirlarini chuqur o'rgandim. Konservatoriyada professor Sulaymon Taxalovdan tahsil oldim. Sinfdoshlarim va kursdoshlarim hozirda Toshkent va viloyatlardagi musiqa maktablari va musiqa ansambllarida ishlaydi. Ular orasida taniqli xor ijrochilari va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, shuningdek, milliy va xalqaro musiqa tanlovlari laureatlari bor. O'tgan yili “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida hamkasbimiz Alisher Ahmedov sovrinni qo'lga kiritdi. Bu konservatoriyaning barcha professor-o'qituvchilari va talabalari xursand qildi. Biz u bilan faxrlanamiz,



uning iste'dodi festivalda yana bir bor namoyon bo'ldi. Festival ishtirokchilari uning betakror, nafis ovozi va mohirona ijro uslubidan yana bir bor hayratda qoldi.

Bahodir Mirpayozov bir necha bor milliy va xalqaro musiqa tanlovlarida hakamlar hay'ati a'zosi va raisi bo'lgan, jumladan, Rossiyaning Buryatiya Respublikasi Ulan-Ude shahrida bo'lib o'tgan “Naidal – 2022” xalqaro tanlovida “Xalq cholg'ulari” nominatsiyasida hakamlar hay'ati raisi vazifasini ham a'lo darajada bajargan.

– Har yili mamlakatning barcha hududlaridan eng iqtidorli yoshlar ushbu tarixiy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilindi, – deydi u. – Biz ularga katta umid bog'laymiz, axir yoshlar bizning kelajagimiz. Ularning muvaffaqiyatlari – bizning natijamiz. Biz, o'qituvchilar, o'zbek san'atini bus-butun holda avlodlarga yetkazishda munosib vositachi rolini bajara olish hamda milliy san'at va madaniyatimizni jahonga tanitish uchun qo'limizdan kelgancha harakat qilamiz.

Flora FAXRUTDINOVA



Qalandarova Safiya Toxirovnaning 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo’yicha “Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining chet tilida kasbiy ishbilarmonlik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jizzax politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.20.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 25-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 130100, Jizzax shahri, Islom Karimov ko’chasi, 4-uy.
Tel/faks: (72) 226-46-05; e-mail: dgpi_info@edu.uz

Shomirov Dilshod Abduhamidovichning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo’yicha “Ayollarda gisterektomiyadan keyin jinsiy prolapslarni bashoratlash va oldini olish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug’bek tumani, Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 132-“a” uy.
Tel/faks: (71) 263-33-14; e-mail: info@uzaig.uz

Xalimova Dilrabo Jalilovnaning 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosliklari bo’yicha “Nikotin saqllovchi mahsulotlar surunkali ta’sirida jigar va oshqozon osti bezining morfofunktsional hamda klinik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 200100, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

Numonova Dilrabo Mo’minjonovnaning 06.01.08 – O’simlikshunoslik ixtisosligi bo’yicha “G’o’zaning Buxoro-102 navini yetishtirish agrotexnologiya elementlarining o’sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri(Andijon viloyatining o’tloqi tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo’hi ko’chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62; e-mail: andqxai@exat.uz

Pirov Mustakim Saidovichning 18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turarjoylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini (texnika fanlari) ixtisosligi bo’yicha “Issiq iqlim va tog’-botiq relyefli sharoitlarida shaharsozlik rayonlashtirilishi metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2026.09.01.T.03.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-fevral kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yangishahar ko’chasi, 9-uy.
Tel/faks: (97) 750-62-80; e-mail: devon@taqu.uz

Xadjixanov Boriyxon Abirxanovichning 04.00.13 – Neft va gaz konlarini o’zlashtirish hamda ishlatish ixtisosligi bo’yicha “Rezervuar energiyasining kamayishi sharoitida konlardan tabiiy gaz qazib olishni maqbullashtirish usullarini takomillashtirish (Gazli guruhi konlari)” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O’ZLITINEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko’chasi, 2-uy.
Tel/faks: 280-67-00, 256-74-18, 256-66-48; e-mail: liting@liting.uz

Allayorov Baxodir Kurambayevichning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo’yicha “COVID-19 sabab pnevmoniya bilan asoratlangan ayollarda homiladorlikni olib borish taktikasini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug’bek tumani, Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 132-“a” uy.
Tel/faks: (71) 263-33-14; e-mail: info@uzaig.uz

Zufarova Nodira Ibroxim qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo’yicha “Daun sindromli bolalardagi salomatlik holati xususiyatlariga, vitamin D va mikroelementlar statusi ta’siri bo’yicha uslublar ishlab chiqish va korreksiyalashning o’ziga xosligi” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko’chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-25, 150-78-28;
veb-sayt: www.tma.uz; e-mail: tashmeduni@gmail.com

Jo’rayeva Gulnoza Abdurashit qizining 02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar ixtisosligi bo’yicha “Tabiiy polimerlarning ikkilamchi tolasimon xomashyosini biokimyoviy modifikatsiyalash” mavzusidagi(kimyo fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.K.04.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.
Tel/faks: (71) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Fayzullayeva Kamola Sunnatillo qizining 02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar ixtisosligi bo’yicha “To’qimachilik matolari sellulyozasini biokimyoviy modifikatsiyalash” mavzusidagi (kimyo fanlari bo’yicha) falsafa doktori dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.K.04.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko’chasi, 104-uy.
Tel/faks: (71) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Jo’rayev Atham Qoraqulovichning 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo’yicha “Talabalar jamoasi kross-madaniy munosabatlarini boshqarishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.2025 27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko’chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-52-74, 246-53-21, 246-02-04; e-mail: nauka@hu.uz

Kurbanova Surayyo Ilxom qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo’yicha “Perimenopauza yoshidagi ayollarda bachadon miomasini differensial davolash tamoyillari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.25.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko’chasi, 2-uy.
Tel/faks: (78) 150-78-25, 150-78-28;
veb-sayt: www.tma.uz; e-mail: tashmeduni@gmail.com

Umarova Maxfuza Usmanovnaning 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosliklari bo’yicha “Nikotin saqllovchi mahsulotlar bilan surunkali intoksikatsiyada og’iz bo’shlig’i va qizilo’ngach shilliq qavatining morfofunktsional o’zgarishlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 200100, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

Shermatova Zuxra Abduxamidovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.09 – Pediatriya ixtisosliklari bo’yicha “Bolalarda tizimli qizil yuguruk rivojlanishining klinik xususiyatlari va immunogenetik belgilari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.tib.50.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 6-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G’ulomov ko’chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Botirova Nasiba Toxirovnaning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo’yicha “Tuproqqa asosiy ishlov berish usul va muddatlarida Serhosil biopreparatini qo’llashning g’o’zadagi samaradorligi(Toshkent viloyatining sug’oriladigan tipik bo’z tuproqlari misolida)” mavzusidagi (qishloq xo’jaligi fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12. Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart soat 9:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, O’zPITI ko’chasi, PSUYEAITI.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Normamatov Ilyos Sulaymonovichning 03.00.03 – Molekulyar biologiya. Molekulyar genetika. Molekulyar biotexnologiya ixtisosligi bo’yicha “G’o’zaning (G. hirsutum L.) sho’rga chidamliligiga aloqador genetik lokuslarini xaritalash va nomzod genlarni aniqlash” mavzusidagi(biologiya fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ilg’or texnologiyalar markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, 3-“a” uy.
Tel/faks: (71) 227-43-19, 203-43-21; e-mail: info@cht-tashkent.uz

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti jamoasi Matematika fakulteti “Matematik analiz” kafedrasini professori, fizika-matematika fanlari doktori
Gulmirza XUDOYBERGANOVning vafoti munosabati bilan uning oila a’zolariga ta’ziya izhor etadi.



(Davomi. Boshi 11-betda.)

Sh.Subhon – tarjimon. U Mehmet O'nderning "Mavlon" asari, Hayrettin Ivginning "Manas" romani, Chingiz Aytmatovning "Eyfel minorasi yonidagi o'ylar" essesi, Vladimir Pechenkinning "Temur yoquti" tarixiy hujjatli asari, O'rxon Pomuqning "Mening ismim qirmizi" romanidan parcha, Sazo'iy Qoraqo'ch, Jo'shqin Qorabulut, Eluja Otali asarlarini turk, ozar va rus tillaridan, Burhon Sharafning "Buxoro maktublari" asarini tatar tilidan o'zbek tiliga mahorat bilan o'g'irgan. Shuningdek, ko'plab o'zbek shoirlari-yu tadqiqotchilarining badiiy va ilmiy asarlarini turk tiliga o'girib, Turkiyada e'lon qilinishiga o'z hissasini qo'shib keldi. Tarjimalari orasida tag'in bir asar borki, uni alohida ta'kidlab aytmoq kerak. Chunki bunday tarjimaga qo'l urish uchun, kitobga salmoqli so'zboshi yozgan professor B.To'xliyev ta'kidlaganidek, jur'at kerak. Men sira ikkinlanmay, "jur'at"ning yoniga "jasorat" so'zini ham qo'shgan bo'lardim. Ushbu asar Fuad Ko'pruluning muazzam "Ilk turk mutasavviflari"dir. Bu borada o'z hayratlarini izhor qilgan J.Qorabulut Sh.Subhon xizmatlarini shunday baholaydi: "Fuad Ko'pruluning "Ilk turk mutasavviflari" nomli nodir asarini turk tilidan o'zbek tiliga sabr va muvaffaqiyat bilan o'girdi. Men kitobning turk tilidagisini ham o'qidim va bu bebaho asarni o'zbek o'quvchisiga taqdim qilgan (tarjimondan) minnatdor bo'lib, hayratlarga cho'ndim".

Do'stlar davrasida. Shoir nafaqat adabiyot yo'llarida, balki qadrdon do'stlari davrasida ham g'oyat faol. Izoh berib o'tsam: bizning turkolog olimlar, shoirlar va yozuvchilardan iborat kichik davramiz bor. U yerda Rajab Shirin, Jo'ra Xudoyberdiyev, Shermurod Subhon, Isajon Sulton, Muzaffar Solijon, Sobir Muhammad, Abdumurod Tilov, Nodirxon Hasan, kamina va boshqalar ora-sira yig'ilishib, gurunglashib turamiz. Gurungdagi bahs-u hazil-mutoyibalar telegram guruhida davom etadi. Jonli va telegram davramizda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzu – Shermurod Subhon she'rlari deb bimalol ayta olaman. Ular ixcham, mobil bo'lganidan darrov e'tibor tortadi va kimdir she'ming u tomonini, boshqa biron bu tomonini tahlillashga kirishadi. Tushunib-tushuntirish qo'limizdan kelmay qolgan damlar esa Sherqul otaga qo'shilib, uning usulida shoirga "hujum" qilib qolamiz:

Shermurod Subhon ijodiy portretiga chizgilar

(Ijodkorning 60 yillik yubileyi munosabati bilan yozilgan TO'Y TAQRIZ)

"odam tushunadigan she'r yozsangiz bo'lmaydimi?!". Bunday bahs-u munozaralar hazil-mutoyiba usulida hatto parodiyalarga aylanib ketadi. Nazarimda, she'rlariga o'xshatmalar (ilgari muxammaslar yozilardi) yozilish borasida hech bir zamonaviy shoir Shermurod Subhon oldiga tusholmasa kerak. Bu borada shoirning eng ashaddiy muxlislari-yu targ'ibotchilari – Muzaffar Solijon va Sobir Muhammadlar bo'ladi. Akasher haqida, uning andak devonavash qalbi, odamni befarq qoldirmaydigan gap-so'zlari, ba'zan tushunib, ba'zan esa tushunilmay bahs-u munozara-yu parodiyalarga sabab bo'ladigan she'rlari, shuningdek, shoir boshidan o'tkazgan sarguzasht-u hangomalarning barini jamlab "Akasher" degan jamoaviy roman yozamiz deb ham yuramiz. Nima bo'lganda ham, shoir she'rlari uning davradosh do'stlarining hamisha diqqat markazida ekanligi – alohida mavzu.

Uzun so'zning qisqasi shuki, serqirra ijodkor Shermurod Subhon Tursun Ali, Abduvali Qutbiddin,

qancha yonma-yon qo'yish mushkul esa-da, pasporti-ga qarab, buning haqiqat ekanligiga amin bo'lishdan o'zga chora topolmaymiz. Nima ham qilamiz, modernchilar o'zi shunaqa – yonma-yon qo'yib, tasavvur qilish mumkin bo'lmagan "yumush"larni o'quvchiga "majburlab tiqishtirishadi". Demak, qirchillama yigit Shermurod Subhon bilan 60 yoshni birga tasavvur qilish ham yana bitta moderncha sunumdan boshqa narsa emas. Qabul qilamizmi-yo'qmi, haqiqat – shu. "Tavba!" deyman, yoqamni ushlab, 60 yoshga hamma qatori, odamlardek qo'lida hasa bilan, andak egilgan ko'yi kirib kelsa, nima qiladi, a, bu modernist-u postmodernist akamiz?!

Aziz do'stimiz Akasher, ajoyib shoirimiz Shermurod Subhon! 60 yoshdan yana bittasini ko'rib tashlang! "Yuztasini" degim kelyapti-yu, lekin bizdek muxlis do'stlaringizsiz bu dunyoda zerikib qolasiz deb, bu bo'lmag'ur fikrdan qaytib turgan joyim bor.

Joningiz sog' bo'lsin!



Toshkent davlat sharqshunoslik instituti "Turkiyot" kafedrasida ustozlar (chapdan ikkinchi) filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqov, taniqli akademiklar Alibek Rustamov, G'ani Abdurahmonov, dotsent Omon Jalilov hamda bugungi kunda filologiya fanlari doktori, professor Qudratilla Omonovlar bilan birga tushilgan suvrat.

Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Aziz Said, Go'zal Begim kabi shoirlarimiz bilan avangard yo'nalish safida turib, zamonaviy o'zbek modern adabiyotiga, shuningdek, o'zbek tarjimachiligi, yangicha she'riyat tanqidchiligi va essechiligi o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Bugun biz tengdosh-u avloddoshlari yaxshi ko'rib, erkalab "Akasher" deb chaqiradiganimiz shoir, tarjimon, essenavist, munaqqid Shermurod Subhon qutlug' 60 yoshni qarshi olmoqda. Yigit kabi, yo'q, chindan ham qirchillama yigit – Akasher va 60 yoshni har

Bolalar-u nevaralaringizga bosh bo'lib yuring!

O'zbek adabiyotiga, uning turli janrlarida yaratilayotgan adabiy xirmonga qo'shib kelayotgan munosib hissangiz bo'yingizdan ancha baland va umringizdan minglab karra umrzoq bo'lsin!

Sizni yaxshi ko'ramiz va hamisha adabiyotimizning, va albatta, bizning – do'stlar davrasi to'rida, uning guli bo'lib yurishingizni Yaratgandan tilab, duolar qilib qolamiz!

Ulug'bek HAMDAM,
filologiya fanlari doktori,
professor

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6030. Tiraji 4800.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqриз
qilinmaydi va mual-
lfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.